O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

ILHOM IKROMOV

XALQ CHOLG‘ULARIDA IJROCHILIK

(DOYRA)

O‘zbekiston davlat konservatoriyasining
5150700-bakalavriat bosqichida ta’lim olayotgan
1-bosqich talabalari uchun
DARSLIK

«Musiqa» nashriyoti
Toshkent
2022

85.315.3ya7
I 37
Ikromov, Ilhom.
Xalq cholg‘ularida ijrochilik (doyra): Oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun darslik /I.Ikromov. – Toshkent: Musiqa, 2022, 216 b.

Ushbu darslik O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2021-yil 23-noyabrdagi 500-sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya etilgan.

Mas’ul muharrir:
B.AZIMOV – O‘zbekiston davlat konservatoriyasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.

Taqrizchilar:
D.ISLOMOV – O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, O‘zDSM professori
B.MIRPAYAZOV – O‘zDK “Xalq cholg‘ularida ijrochilik” kafedrasi mudiri, professor.

Mazkur darslikda doyra ijrochilik san’ati tarixiga doir ma’lumotlar, uslubiy ko‘rsatmalar, doyra usullarini notalashtirish va ijro etish qoidalari bayon etilgan. Ijro mahoratini oshirish, nazariy va amaliy bilim, malaka, ko‘nikmalar hosil qilish uchun mashq, etud, konsert etudlar, turli xarakterdagi asarlardan namunalar berilgan.

Ushbu darslik O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Ta’lim yo‘nalishi 5150700 – Cholg‘u ijrochiligi (xalq cholg‘ulari) 1-kurs talabalari uchun DTS asosida tayyorlangan.

В данном учебнике излагаются сведения относительно истории исполнительского искусства игры на дойре, даны методические указания, нотирование и правила исполнения. В целях повышения исполнительского мастерства, формирования теоретических, практических знаний и квалифицированных навыков, даны образцы упражнений, этюдов, концертных этюдов и произведения различного рода. Данный учебник подготовлен на основе ГОС для студентов первого курса Государственной консерватории Узбекистана, по направлению образования 5150700 – Инструментальное исполнение (народные инструменты).

KBK 85.315.3ya7
UO‘K 785(075)

ISBN 978-9943-7397-7-2

© «Musiqa» nashriyoti, 2022.
© I.Ikromov, 2022.

SO'Z BOSHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi haqidagi qaroriga (28.11.2018 y. №PQ-4038) muvofiq, keyingi yillarda mamlakatimizda xalqimizning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini yuksaltirish, madaniyat va san'at muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, soha vakillarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining (2022-yil 2-fevral) Qarorida Madaniyat va san'at sohasida iste'dodli yosh ijodkorlarni izlab topish va qo'llab-quvvatlash, ta'lim muassasalarini milliy cholg'ular, musiqa darsliklari, notalar to'plamlari va o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlashning yaxlit tizimini yaratish maqsadida, shuningdek, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq, 2022-2023- o'quv yilidan boshlab, ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste'dodlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilish belgilangan. Bundan oldin O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoniga asosan, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar stretegiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili[1]" da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda butun Oliy ta'lim muassasalari oldida juda katta vazifalarni bajarish lozimligi qayd etilgan.

Avloddan-avlodga o'tib kelayotgan milliy musiqa merosimizni asrab-avaylash, yangi sharoitlarda rivojlantirish va ulardan xalqimizni bahramand qilish uchun keng imkoniyatlar yaratish, milliy va jahon kompozitorlari ijodiyotini insoniyat intellektual xazinasi sifatida xalq orasida keng targ'ib qilish, mumtoz janrlarni rivojlantirish yo'nalishlari belgilangan. Soha bo'yicha professional malakali kadrlarni tayyorlash, maxsus adabiyotlar yaratish, ta'lim sifatini oshirish, uning pirovardida iste'dodli ijodkorlarni yetishtirish, yosh avlod ongida an'anaviy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini shakllantirish, etnik madaniy an'analarni asrash va ularga asoslangan xalq ijodiyotini rivojlantirish, milliy san'at an'analarini saqlab qolish, rivojlantirish orqali ularning jahon sahnasida e'tirof etilishiga yo'naltirish bugungi asosiy vazifalar hisoblanadi.

Shularni e'tiborga olib, tavsiya etilayotgan ushbu darslik O'zbekiston davlat konservatoriyasi DTS asosida tayyorlangan Ta'lim yo'nalishi 5150700 –

[1] "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 1-ilova: "2017-202- yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi". "Xalq so'zi" gazetasi. 2017- yil 8-fevral soni va internet resurs: www.lex.uz.

Cholg'u ijrochiligi (xalq cholg'ulari) 1 kurs talabalari uchun taqdim etilmoqda. Bundan barcha o'quv muassasalari birdek foydalanishlari mumkin.

Birinchi qismda doira ijrochiligiga doir qisqacha tarixiy ma'lumotlar, musiqa ijrochiligining o'rni va rivojlanish jarayoni, doira usullarini notalashtirish va ijro etish qoidalari bayon etilgan. Shuningdek, darslikda uslubiy ko'rsatmalar, Doira zarblarini ijrochilikda qo'llash uslublari, pauza, liga, aktsent, nuqtalik usullar, rez, sinkopa, triol` kabi belgilarning ijro uslublari sodda, ommabop ravishda tushuntirilgan. Shu bilan birga, muallif I.Ikromov tomonidan bastalagan bir qancha etyud va duetlar darslikdan o'rin olgan. Bu etyudlar doira, nog'ora usullari va qochirimlari asosida yozilgan bo'lib, sozandaning ijro imkoniyatlarini oshirishda, uning yakkanavozlikda, raqs san'atidagi usullarni o'zlashtirishida, milliy kuylarga jo'r bo'la olishida, zarblarning sof va texnik takomilidagi qiyinchiliklarni yengishida yordam beradi. Amaliy qismda O'zbekiston kompozitorlarining doira va fortepiano uchun moslashtirilgan asarlaridan namunalar ham berilgan.

Binobarin, doira va boshqa urma cholg'ularning paydo bo'lishi va rivojlanish jarayoni, O'zbekistondagi vohalar hududida doira usullarining yaratilishi va doira ijrochilik san'atining o'ziga xos ijrochilik uslublari yoritiladi. Ayniqsa, Xorazm doirachilarining ijrochilik mahorati, jumladan, ohang, zarb jihatidan O'zbekistonning boshqa viloyatlaridagi doirachilardan farq qiladi. Shu bois, darslikka ilk marotaba Xorazm usullariga xos doira va fortepiano uchun moslashtirilgan «Lazgi», «Galalaylum» asarlari va M.Ashrafiy, M.Leviyev, F.Nazarov, A.Liviyev, G.Mushel, F.Olimov kabi kompozitorlarning kuylari ham kiritilgan. XX asrning birinchi yarmidan boshlab, O'zbekiston doira ijrochiligining yangi shakli, ya'ni doira yakkasozligida raqsga jo'r bo'lish janri shakllana boshladi va bu yo'nalish bugungi kunda ham ahamiyatga ega. Shuningdek, doirachilardan jamoa-dastalar, ansambllar tuzish ommalashdi. Bu jarayon, hozirda ham ayniqsa, doirada ijrochilik usullarini egallashda muhim uslub sifatida qo'llaniladi.

Darslik taniqli san'at ustalari O'zbekiston xalq artisti Usta Olim Komilov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist To'ychi Inog'omov kabi ijrochilar yaratgan doira usullarining D.Islomov, I.Ikromov tomonidan notalashtirilgan namunalari bilan yakunlanadi.

Baxtiyor Azimov, O'zDK dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi.

I SEMESTR
1-mavzu: “Xalq cholg‘ularida ijrochilik” (6 soat)

1–6-darslar. DOYRA CHOLG‘USI HAQIDA

Markaziy Osiyo xalqlari musiqa madaniyatining sarchashmalari uzoq o‘tmishdan boshlanadi. Miloddan avvalgi birinchi ming yillikdayoq Markaziy Osiyo xalqlari hayotida musiqa va raqs san’ati alohida ahamiyat kasb etgan. Markaziy Osiyo va ayrim Sharq xalqlari ko‘hna musiqa madaniyatining o‘ziga xos belgilaridan biri — ommaviy xalq qo‘shiqlari va cholg‘u kuylari bilan bir qatorda, an’anaviy hisoblangan og‘zaki uslubdagi musiqa san’ati vujudga keldi va rivojlandi.

Markaziy Osiyo xalqlarining, jumladan, o‘zbek xalqining qadimiy kuy va qo‘shiqlari to‘g‘risidagi dastlabki ma’lumotlarni Sharq musiqa madaniyati haqida fikr yuritgan O‘rta asr olimlarining risolalaridan ham bilib olsak bo‘ladi. Musiqa ilmi va amaliyotiga oid turli muammolar ustida birinchilar qatorida fikr yuritgan mutafakkirlardan biri mashhur faylasuf, qomusiy alloma Abu Nasr Farobiydir (IX-X asr). Uning musiqaga oid «Kitob al-musiqiy al-kabir» nomli ulkan kitobi («Musiqa haqidagi katta kitob») keyingi avlodlar ijodi uchun dasturilamal sifatida xizmat qilib kelmoqda desak, hech mubolag‘a bo‘lmaydi. Shuningdek, bu asar Abu Ali ibn Sino (X-XI asr), Abdurahmon Jomiy (XV asr), Najmiddin Kavkabiy (XVI asr) va Darvish Ali Changiy (XVI-XVII asr) tadqiqotlariga ham asos bo‘ldi. Ularning asarlarida zikr etilishicha, Markaziy Osiyo xalqlari, ayniqsa, o‘zbek xalqining musiqa madaniyati, jumladan, cholg‘u sozlari qadim zamonlardanoq xilma-xil va boy bo‘lganligidan dalolat beradi. Asrlar davomida Markaziy Osiyoda tanbur, ud, nay, chang, rubob, qo‘biz, g‘ijjak, surnay, bulaman, nog‘ora va doyra kabi musiqa cholg‘ulari keng qo‘llanilib kelingan.

Bizgacha yetib kelgan ma’lumotlarga ko‘ra, jo‘rnavoz zarbli soz sifatida ommalashgan doyra ham o‘zining rivojlanib kelayotgan, milliy ohanglarga boy zarb va usullari bilan xalq orasida shuhrat qozonib kelgan.

Eramizdan avvalgi ikki mingginchi yillikka oid Saymalitosh arxeologik qazilmalaridan topilgan doyrasimon sozlarda ijro etilayotgan tasvirlar juda qadim paytlardayoq vujudga kelgan cholg‘u ekanligidan guvohlik beradi. Turli tasvirlarda aks ettirilgan bu cholg‘u zamonaviy o‘zbek va tojik doyralariga aynan o‘xshab ketadi.

Ayrim qadimiy tasvirlardagiga nisbatan doyraning hozirgi tuzilishida ba’zi o‘zgarishlar mavjud. Masalan, doyra gardishida teshiklar o‘yilmaydi, hozir esa ularning o‘rnini gardishning ichki tomonidan osiladigan metall halqachalar egallagan. Gardish ustiga tortiladigan teri sathi (membrana) ham bir muncha kengaygan. Yana shuni aytib o‘tish kerakki, bular asosan, XV-XVI asrlarga oid kitob bezaklarida, Sharq miniaturalarida tasvirlangan. Ammo Markaziy Osiyoning undan oldingi antik yodgorliklaridan hisoblangan Niso qal’asining

peshtoqlarida tasvirlangan doyralar bu cholg‘uning ilk tuzilishi hozirgi o‘zbek doyralariga yaqin ekanligini ko‘rsatadi.

Bu cholg‘u o‘zbek va tojiklarda «doyra», «chirmanda», «childirma», armanlarda «dapp», eron va misrliklarda «daff», ozarbayjonlarda «def», «doyre», «gaval», ayrim Sharq mamlakatlarida «dabu» va boshqa nomlar bilan keng tarqalganligi ma’lum. Umuman, doyra turlari bir-biridan katta-kichikligi, tarkibiy qismlarining tuzilishi, ijrochilik uslublari bilan farq qiladi.

Markaziy Osiyo yerlarida olib borilgan arxeologik qazilmalar natijasida olingan ma’lumotlarga qaraganda, islom davridan oldingi zamonlarda doyra ijrosiga, asosan, ayollar jo‘r bo‘lgan. Ularning doyra usullariga mos qo‘shiq aytishi va raqsga tushishi o‘sha davrlarda shakllanib, asrlar osha rivojlanib kelgan. Hozirgi kunda ham Samarqand, Farg‘ona, Buxoro, Namangan va boshqa bir qator viloyatlarda doyra ayollar ijrochiligidagi asosiy cholg‘ulardan biridir. Ayniqsa, Farg‘ona vohasining shahar va qishloqlarida faqat doyra jo‘rligida qo‘shiq aytadigan, raqsga tushadigan qanchadan-qancha xalq dastalari tuzilgan. Ular turli an’anaviy marosimlar bilan bog‘liq bo‘lgan tadbirlarda ishtirok etadilar. Yor-yorlar, o‘lanlar, laparlar, yallalar hamda zamonaviy qo‘shiq va raqslarni ijro qiladilar. Bunday turdagi xalq dastalarining ijrochilik san’ati kun sayin ko‘plab muxlislarning e’tiborini qozonmoqda. Hujjatlarning dalolatiga ko‘ra, doyra zarbli sozlar – qayroq, zang va boshqalar bilan bir qatorda, oymoma marosimlarida kohinlar tomonidan keng qo‘llanilgan. Niso qal’asi peshtoqlarida tasvirlanishicha, doyra diniy marosim raqslariga jo‘r bo‘luvchi cholg‘u sanalib, ayrim hollarda raqsga tushuvchilarning o‘zlari doyrachilar tomonidan ijro etilgan.

Turli toifadagi cholg‘u va ashula dastalari tarkibida ham doyra oldindan salmoqli o‘rin tutib kelgan. Xalqimizning ma’naviy boyligi, xalq ijodida asrlar osha shakllanib, rivojlanib kelgan maqomlarda esa, asosiy negiz lad va usuldir. Shuning uchun milliy musiqamizning shoh asarlari bo‘lmish maqomlar ijrochiligini doyrasiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Maqomlarning nasr va mushkulot ijro yo‘llarini yuqori malakali ijrochi sozandalar-u hofizlar doyra bilan hamkorlikda ijro etishgan.

Ma’lumki, doyra va barcha zarbli cholg‘ular ijrochiligi vujudga kelishi va ravnaqi jarayonida Markaziy Osiyo miqyosida har bir vohada o‘ziga xos mahalliy ijrochilik uslublari shakllangan. Bu uslublarda har bir vohaning o‘ziga xos xususiyatlari, ahamiyat kasb etuvchi tomonlari hamon o‘z mohiyatini saqlab kelmoqda. Bularga Xorazm, Buxoro, Samarqand, Farg‘ona-Toshkent doyra ijrochiligini misol qilib keltirishimiz mumkin. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, Xorazm doyrachilik maktabi o‘z ijrochilik uslubi va usullarining tarkib topishi jihatidan O‘zbekistonning boshqa vohalaridagi doyra ijrochiligi uslublaridan farq qiladi. Shu bilan birga, Xorazmda ikki xil – katta va kichik doyra cholg‘usi mavjud bo‘lib, asosan jo‘r bo‘luvchi soz sifatida qo‘llaniladi. Bu vohada doyra ijrochiligining yakkanavozlik uslubi uncha rivoj topmagan. Bevosita cholg‘uning ijro holatini aytadigan bo‘lsak, Xorazmda doyra mo‘tadil qizdiriladi va shu tufayli o‘zgacha tembrga ega tovush hosil qiladi.

Bizdagi bor musiqiy manbalardan kuzatishimizcha, qadimdan barcha vohalar musiqa dastalarining ijrochilik faoliyatida doyra doim ishtirok etgan. Odatda, bir doyrani ishlatish keng ommalashgan, lekin ba'zi hollarda ikki, uch doyra ham ishlatilganligi ma'lum. Biroq hamma ma'lumotlarda doyra yakkanavozligi haqida birdek so‘z yuritilmagan. Bu hol XX asrning dastlabki davriga ham taalluqlidir. Ammo doyra cholg‘usining butun ijroviy xususiyatlari yakkanavozlikda, raqsga jo‘r bo‘lish jarayonida namoyon bo‘ladi. Doyra yakkanavozligining tarkib topishida raqs san'atining ta'siri katta. Chunki bu jarayon raqslarda bo‘lgan harakat, joziba, lutf, imo-ishora kabi xalqimizga xos go‘zal an'analarni doyra usullarida to‘la ifodalash bilan bog‘liqdir. Shu bilan birga, bu holat doyra ijrochisi uchun xilma-xil, rang-barang usullar majmuasini tuzish va ularni mohirona ijro etish bilan chegaralanmay, an'anaviy raqs san'ati sirlarini ham tushunishni, his qilishni talab etadi. Ohang va vazn jihatlaridan tarkib topgan xilma-xil murakkab raqslar majmuasidan shakllangan asarlarda bir usuldan ikkinchi usulga o‘tishning tabiiy va mantiqan asoslangan yo‘lini topish doyra ijrochisining mahoratiga bog‘liqdir. Bundan tashqari, yangi-yangi raqslarni (doyra jo‘rligida) yaratish, ularni o‘zlashtirish va sahnalashtirish kabi bir qator tadbirlarda doyrachi ham g‘oyat muhim rol o‘ynaydi. Zero, raqsni erkin rivojlantirishning asosiy mezonlaridan biri usullar majmuasidir.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, O‘zbekistonda doyra ijrochiligining yangi uslubi, ya'ni uning yakka soz sifatida qo‘llanishi rivojlana boshladi. Bu ishga 1947-yilda Toshkentdagi talabalar saroyi (hozirgi Respublika talabalari va o‘smir yoshlari ijodiyot markazi) qoshida doyrachi bolalar to‘garagi tashkil etish bilan ilk bor qadam qo‘yildi. Ularning faoliyati boy o‘zbek usullarini o‘rganish bilan bir qatorda, estrada sahnalarida bitta yoki bir nechta (to‘rttagacha) doyrada yakkanavoz bo‘lib ijro etish uslublarini ham o‘rganishga asoslangan edi. Doyrachi bolalar to‘garagini bitirganlar keyinchalik egallagan ijrochilik mahoratlari tufayli o‘zbek musiqa san'atini dunyoning turli mamlakatlarida namoyish etib, olqishlarga sazovor bo‘ldilar. Qator doyrachilarning ijrochilik san'ati yuksak mukofotlar bilan taqdirlangan. Ular orasida O‘zbekiston xalq artistlari va Davlat mukofoti sovrindorlari, xalqaro va Respublika tanlovlari, jahon festivallarining bir necha g‘oliblari bor. Jumladan, Rahim Isaxo‘jayev, Enver Barayev, Dadaxo‘ja Sottixo‘jayev, Qahramon Dadayev, Ravshan Akberbekov, Tal'at Sayfutdinov, Odil Kamolxo‘jayev, aka-uka Dilmurod, Xolmurod, Elmurod Islomovlar, Husan Nosirov, Abbos Qosimov, Riffatilla Samadov, Ilhom Ikromov kabi san'at namoyandalari el-yurt e'tiborini qozonganlar. O‘zbekiston Pespublikasi Prezidenti Sh.M.Mipziyoyev tomonidan talaba-yoshlar ijodkorligini shakllantirish, ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish, musiqa, san'at turlari bo‘yicha o‘z iqtidorlarini namoyish etish borasida tavsiya etilgan 5 ta tashabbusning "Birinchisi – Yoshlarni musiqa, rassomlik, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish, qobiliyatlarini namoyon qilishni ta'minlash choralapi"ni ko‘rish kabi qator vazifalar belgilab berilgan.

Yosh san’atkor – o‘qish, bilim va malakani oshirishdan tashqari, ustozlar tajribasini, ularning boy ijodiy meros va ma’naviy-madaniy qadriyatlarni o‘rganishdek o‘ziga xos mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tishi lozim. Chunki kelajak yosh avlodlarimiz har tomonlama yetuk shaxs sifatida kamol topishlari va albatta, o‘z musiqiy tarixi bo‘lmish milliy cholg‘ularimizni, jumladan, urma zarbli cholg‘ularda ijroni mukammal egallab, tanlagan kasblarining chin ma’nodagi ustasi bo‘lib yetishishlari zarur.

Biz keltirgan misollar doyra ijrochilik an’analarining hayotiyligi va zamonaviy ruhda rivojlanib, yangidan yangi janr va shakllarni vujudga keltirishi mumkinligini va o‘zbek an’anaviy musiqa san’atida doyraning tutgan salmoqli o‘rnini ko‘rsatadi. Doyradan taralgan sadolar tinglovchilarni o‘ziga rom etib, ularda badiiy va estetik qiziqish uyg‘otishi shubhasizdir.

An’anaviy musiqa janrlarining barhayotligi bilan bir qatorda, hozirgi kunda zamon talabiga mos musiqiy janrlar, ijrochilikning yangicha uslubi, yangicha bastakorlik ijod turlari shakllanmoqda. Keyingi yillarda o‘zbek kompozitorlari o‘z asarlarida doyra usullariga katta e’tibor bilan yondashib, unga alohida e’tibor bermoqdalar. Masalan, opera va balet janrida yaratilgan asarlarda ham doyra yakkanavoz va jo‘r bo‘luvchi cholg‘u sifatida ishlatilmoqda. Simfonik orkestr ijrosidagi har bir asarga doyra o‘ziga xos milliy ruh baxsh etmoqda. Kompozitor G.Mushelning tomoshabinlar diqqatiga sazovor bo‘lgan «Raqqosa» va «Baxt guli» baletlarining ma’lum joylarida milliy raqslar shaklida berilgan parchalar O‘zbekiston xalq artisti, mashhur doyrachi Usta Olim Komilovning bevosita ishtirokida yaratilgan va sahnalashtirilgandir. Raqs ustasi va ustoz doyrachining ijodiy hamkorligi natijasida yaratilgan «Raqqosa» baleti o‘ziga xos milliy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Asarda doyra yakkanavoz cholg‘u sifatida ishlatilib, uning serjilo usullar majmuasiga mos raqs san’ati harakatlarini mashhur raqs ustasi G.Izmaylova namoyish etgan. Doyraning yakkanavoz ohangi uning raqsiga milliy tus berib, har bir harakatni qaytarilmas, go‘zal badiiy holatga keltirgan. Bundan tashqari, o‘zbek kompozitorlarining musiqiy dramalarini sahnalashtirgan Muqimiy nomidagi o‘zbek Davlat musiqali drama va komediya teatri ham bu borada bir qator ishlarni amalga oshirgan.

O‘zbek simfonik musiqasi tarkibida ham doyra ijrochiligi o‘z rivojini topgan. O‘zbekiston kompozitorlari simfonik asarlarining ko‘pchilik qismida, masalan, M.Tojiyevning 11-simfoniyasi, T.Qurbonovning «To‘yona», «Askiya», S.Jalilning «Toshkent manzaralari» kabi simfonik partituralarida doyra o‘z o‘rnini topgan.

O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri uchun yaratilgan asarlarda ham doyra usullariga alohida urg‘u berilgan. 1938-yil noyabr oyida O‘zbekiston davlat filarmoniyasi qoshida nota bilan ijro etadigan “O‘zbek xalq cholg‘ulari” orkestri tuzildi. O‘zbekistonning ko‘pgina kompozitorlari aynan shu orkestr uchun asarlar yoza boshladilar. Ushbu asarlarda doyra partiyasi orkestrning metro-ritmik xususiyatlari ravon ta’minlanishiga olib keldi. B.Giyenko, T.Qurbonov, F.Olimov, A.Mansurov asarlarida bu xususiyat yaqqol ko‘zga tashlanadi.

So‘nggi yillarda bu hol “O‘zbek xalq cholg‘ulari” orkestri uchun yaratilgan barcha asarlarda o‘z aksini topmoqda.

Shu bilan birga, keyingi yillarda doyrani Xor jamoalari uchun yozilgan asarlarga ham jo‘r bo‘luvchi soz sifatida qo‘llash odat tusiga kirmoqda. Ko‘pincha, doyra usullariga xor kapellasi ovozlar yordamida taqlid qilib kelganlar. Doyra usullarini asosan bas (yo‘g‘on) ovozli ashulachilar ijro etishgan. 1970 yillarda xor, doyra va zarbli cholg‘ular uchun qator asarlar yaratildi. Jumladan, S.Yudakovning «Muborakbod» asarida xor, ikkita doyra va qayroq, «Alyor» asarida esa xor, simfonik orkestr va to‘rtta doyra, B.Umidjonovning «Mavrigi» asarida doyra va qayroq sozlari ishtirok etadi.

O‘zbekistonda XX asrning o‘rtalarida shakllangan yana bir musiqiy ommabop janr – estrada janri. Bu janrning ijro faoliyatida ham doyra cholg‘usi muayyan vazifani o‘taydi. Mashhur xonanda, O‘zbekiston xalq artisti Botir Zokirov boshlagan estrada an’analari hozirda rivojlanib, turli zamonaviy oqimlar ta’sirida boyib, uyg‘unlashib bormoqda. Shuni ta’kidlash lozimki, aynan estrada janrida ham ma’lum milliy xarakter ko‘p hollarda doyra sadolarida talqin etiladi. Buni biz «Yalla», «Sado», «G‘uncha», «Toshkent», «Navo» kabi estrada dastalarining dasturlaridan joy olgan qo‘shiqlarda ko‘rganmiz. Bu yo‘nalish hozirgi kunda ham davom etmoqda.

Doyra ijrochilik san’atining rivojlanish jarayonida yosh avlodga nazariy hamda amaliy bilim berish maqsadida O‘zbekiston davlat konservatoriyasining «Xalq cholg‘ulari» kafedrasida doyra va urma-zarbli cholg‘ular sinfi tashkil topdi. Ushbu dargohda har bir iste’dodli talaba doyra ijrochiligi tarixini, nazariy bilimlarni mukammal egallab, amaliy o‘zlashtirishga esa ijodiy yondashgan holda saboq olmoqdalar. Dargohni bitirgan talabalar hozirgi kunda O‘zbekistonning turli san’at va madaniyat maskanlarida muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatmoqdalar.

Hayotda har bir ish ma’lum darajada kamchilikka, turli muammolarga ega bo‘lgani kabi, ushbu soha ham bundan mustasno emas. Biz nazarda tutgan muammo doyra ijrochiligi uchun yaratilgan o‘quv adabiyotlarining soni va sifati. Bu borada mazmun jihatidan bir-biriga juda yaqin bo‘lgan – A.I.Petrosyans qalamiga mansub «Doyra uchun darslik» va O.Kamolxo‘jayev bilan A.Liviyevning «Doyra darsligi»ni eslatib o‘tish lozim. Ikkala darslik ham asosan doyra ijrochilik san’atini endi o‘rganishga kirishgan sozandalarga mo‘ljallangan. Mamlakatimizda milliy madaniyat va san’atni yanada rivojlantirishning maqsadi, vazifalari, tamoyillari, shuningdek, ustuvor yo‘nalishlari belgilangan.

Muhim tarixiy manba tariqasida I.Akbarovning Usta Olim Komilovdan yozib olgan «Doyraning zarblari» to‘plamini eslatib o‘tish lozim. Bundan 70 yil muqaddam chop etilganiga qaramay, ushbu to‘plam hozirgi kungacha an’anaviy usullarning eng to‘liq majmuasi, deb tan olinadi. Bugungi kunda bu sohada ham ijobiy siljishlar bo‘ldi, yangi o‘quv adabiyotlari nashr yuzini ko‘rdi, masalan: Y.Haqqulov «Doyra uchun pyesalar» (1980), T.Ashrafxo‘jayev, A.Ismatullayev «Doyra sinfi bo‘yicha xrestomatiya» (1981), O.Kamolxo‘jaev, A.Liviev «Doyra

darsligi» (1985), I.Ikromov “Doyra darsligi” (1997), M.Sattorov “Doyra sehri” (2002), O.Kamolxo‘jayev “Usul va kuy” (2008), A.Yo‘ldoshev “Doyra ijrochiligida ustoz maqomi” (2015), N.Rahmatov “Doyra” (2016), D.Islomov “Ustozlardan doyra saboqlari” (2014), “Maxsus cholg‘u” (2016), “Xalq cholg‘ularini o‘rganish” Doyra raqs usullarini o‘rganishga mo‘ljallangan (2019), “Maxsus cholg‘u” An’anaviy doyra ijrochiligi (2019), “Maxsus cholg‘u” An’anaviy doyra usullari (2020), “Doyra ijrochiligi” (2020), T.Sayfutdinov “Doyra ijrochiligi san’ati” (2020) va boshqalar.

Bundan tashqari O‘zbekiston davlat konservatoriyasida olib boriladigan “Ansambl sinfi” fani “Xalq cholg‘ularida ijrochilik”, “Orkestr”, “Dirijorlik”, “Cholg‘ushunoslik”, Cholg‘ulashtirish”, “Fortepiano” kabi fanlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, talabalar o‘z bilim, ko‘nikmalarini boyitib boradilar. Chunki puxta nazariy bilimlarga va amaliy ish ko‘nikmasiga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash bugungi kunning dolzarb vazifasiga aylangan. “Ansambl sinfi”da cholg‘u ijrochiligi san’ati va xalq ijodiyoti bo‘yicha keng tasavvur, ansambl, orkestr tarkibida ijrochilik ko‘nikmasi, dirijor – rahbar talabiga to‘liq javob beruvchi, jamoada ishlarni faol olib boruvchi mutaxassis tayyorlanadi.

Bugungi kunda, ansambl, orketsr, yakkanavoz cholg‘uchilik ijrochiligi keng rivoj topdi. Mustaqillik sharofati tufayli madaniyatimiz va san’atimizni yanada rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochildi. Xalq cholg‘ulari ansambllarining yangi-yangi turlari ijrochilik san’atining yutuqlarini nafaqat Vatanimiz bo‘ylab, hatto xorijiy mamlakatlarda ham tarannum etmoqdalar. Boshqa cholg‘ularimizga qaraganda xorijliklar Doyra ijrochiligi va doyra cholg‘usini yaxshi biladilar, havas bilan uning usullarini tinglaydilar.

Yuqorida qayd etilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki, doyra ijrochiligi o‘zbek musiqa san’atining ajralmas bir qismidir. Nazariy bilimlar amaliy ijro bilan mustahkamlanib boriladi, unda mashq, etud, asarlar talabaning imkoniyatiga qarab ushbu darslikda tavsiya etilgan namunalardan tanlanadi.

Nazorat savollari

1. Doyra haqida ma’lumotlar yozib qoldirgan Sharq allomalaridan kimlarni bilasiz?
2. Doyra va uning ijrosi, nota yozuvlari haqida shug‘ullangan musiqashunos olimlardan kimlarni bilasiz?
3. Doyra uchun birinchi chop etilgan darslik muallifi kim?
4. O‘zbekiston davlat konservatoriyasida “O‘zbek xalq cholg‘ulari” bo‘limi nechanchi yil tashkil topgan?
   tashkil etilgan?
6. O‘zbek xalq cholg‘ulari bo‘limida Doyra sinfi mutaxassisligi bo‘yicha saboq bergan birinchi ustoz?

Adabiyotlar:

1.Akbarov I. Musiqa lug‘ati. Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987.
2.Akbarov I. “Doyra zarblari”. T., 1952.
3. Karomatov F. “O‘zbek cholg‘u musiqasi”. T., 1972.
4. Odilov A. “O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi”, T., 1995.
5. Ikromov I. “Doyra darsligi”. T., 1997.
6.Islomov D. “Doyra ijrochiligi” T.2020.

2-mavzu: “Cholg‘u ijrochiligi nazariyasi va tarixi. Cholg‘u ijrochiligi va cholg‘uning tovush imkoniyatlari” (4 soat).

7–11-darslar

BOSHLANG‘ICH DARS MASHG‘ULOTLARINI O‘TKAZISH HAQIDA

Talabalarning doyrada ijrochilik mahoratini bir maromda yaxshi rivojlantirishlari uchun o‘qituvchi ularning imkoniyatlariga qarab, kerakli topshiriqlar berib borishi lozim. Bu topshiriqlarning bajarilishini o‘qituvchi har bir dars mashg‘ulotlari mobaynida nazorat qilib turishi maqsadga muvofiqdir. 1 kurs talabalarning ijrochilik qobiliyati darajalari turlicha bo‘lganligi sababli, ularning har biriga alohida reja tuziladi. Boshlang‘ich mashg‘ulotlarda talabaning nazariy va amaliy bilimini bilish maqsadida shaxsiy rejaga butun, yarimtalik, choraktalik nota va pauzalardan, oddiy o‘lchovlarda yaratilgan mashqlardan va sodda etudlardan kiritilishi ma’qul. Yuqori kurslarga o‘tgan sari, talabalar qobiliyatiga qarab, sekin-asta murakkab o‘lchovlarga xos mashqlar, etudlar tavsiya etiladi. Bu asarlar ko‘proq nimchorak, o‘n oltitalik, o‘ttiz ikkitalik notalar cho‘zimi va pauzalaridan tarkib topgan bo‘lishi kerak. Chunki, soddadan murakkablik sari intilish doyra ijrochiligini mukammal o‘zlashtirishga keng imkoniyat yaratib beradi.

Talaba har bir darsga kirishidan avval 30-40 daqiqa vaqt davomida o‘rtacha qizdirilgan doyrada har xil etudlar va usullarni mustaqil holda sekin-asta mashq qilib, qo‘llarini yurgizishi kerak. So‘ngra doyrani yaxshilab qizdirib, asosiy darsni boshlashi mumkin. Shuni yodda tutish lozimki, qo‘llar yaxshi harakatga kelmagan holda qizdirilgan doyrani chalish barmoqlarni xastalikka olib keladi.

O‘qituvchi-rahbar o‘z shogirdiga to‘g‘ri va aniq saboq berish jarayonida va ularni cholg‘uda tiniq, ravon, sadoli tovush chiqarishga o‘rgatishda quyidagilarga e’tiborni qaratishi talab qilinadi:

a) ikkala qo‘l va barmoqlar zarblari bir xil kuch bilan urilishi;

b) ansambl bo‘lib ijro etishga o‘rgatish; jo‘rnavozlikda har bir doyrachi usulga jilo (qochirim) berishga intiladi. Bu esa cholg‘u mahoratini o‘stirib, mustaqillikka undaydi;

d) qishki, yozgi sinovlarda, konsertlarda o‘zbek kompozitorlarining doyra va fortepiano uchun moslashtirilgan asarlaridan ijro etish talabalarning musiqiy qobiliyati, ijrochilik saviyasini rivojlantiradi. Yilda ikki marotaba bo‘lib o‘tadigan mahorat sinov imtihonlarida har bir talabaning ijro vazifasi, turli uslubdagi mashqlar, etudlar, konsert etudlar, nazariy, amaliy savol-javoblardan tashkil topgan bo‘lmog‘i lozim. Yakkanavozlikda O.Komilov, T.Inog‘omov, G‘.Azimov, Q.Dadayev, O.Kamolxo‘jayev, D.Islomov, I.Ikromov kabi ustoz doyrachilar bastalagan doyra usullari majmualarini o‘rgatishga jalb etmoq zarur. Bu usullarni ijro etishda talabalar yuqorida qayd etilgan mashq etudlarni puxta o‘zlashtirgan bo‘lishlari shart.

Bugungi kunda doyra va urma-zarbli cholg‘ular sinfi uchun uslubiy qo‘llanmalar yaratilmoqda. O‘zbekiston davlat konservatoriyasi, madaniyat Oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari tomonidan yaratilgan ilmiy-uslubiy ishlar o‘quv jarayoniga xizmat qilmoqda.

Ushbu uslubiy qo‘llanmalardan talabalarning ijrochilik san’atini rivojlantirishda, yosh doyrachilar mahoratini oshirishda keng foydalanish mumkin. har bir yosh sozanda ijro etayotgan asari, uning muallifi, asar mazmunini mustaqil ravishda tahlil etish, ijroni audio, video yozuvlardan tinglab, o‘z ijrosi bilan qiyoslashni o‘zlashtirishi lozim. Shuningdek mashg‘ulotlarda pedagogik texnologiyalardan foydalanish bu – asarni o‘zlashtirish jarayonida har bir darsda nazariy bilim berish, savol-javob tariqasida munozara yuritbh, talabalarning fikrini tinglab, xulosa qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasida san’at turlari bilan shug‘ullanuvchi badiiy jamoalar soni talaygina, ularning har biri o‘z o‘rniga ega, san’at bilan shug‘ullanishda mas’uliyatni his etib quyidagilarga e’tibor qaratish lozim. Jumladan: kiyinish odobi, nutq, muomala madaniyati, mehnat qilish tartibi, mahorat oshirish ustida muntazamlilik, har bir faoliyatda yoshlarga namuna bo‘lish va boshqalar. Shular bilan 1-kurs talabalarini tanishtirib borish, unga nisbatan qiziqish uyg‘otish, yoshlarning dunyoqarashini kengaytiradi, ular faoliyatini ijobiy ishlarga yetaklaydi, ezgu ishlarga ruhlantiradi. O‘quv jarayonida o‘qituvchi va talaba bajaradigan vazifalar:

1. Doirada notadan ravon o‘qish malakasi ustida ishlash – ijrochilik ko‘nikmalarini mukammalashtirish, ularni yanada rivojlantirish qatorida notalarni varoqdan ravon o‘qish, matnni aniq, tekis, savodli va erkin ijro etish, talabalarga qo‘yiladigan asosiy talablardan hisoblanadi. Bu talabalarning umumiy musiqiy-nazariy bilim doirasining yanada kengayishiga, notalarni varaqdan ravon o‘qish tajribasi izchil ravishda oshishiga hissa qo‘shadi. Buning uchun maxsus doyra uchun yaratilgan har yarim yilda ikkita etud, 3-4 ta turli xarakter uslubidagi asarlar ijro etishi tavsiya qilinadi.

2. Ijrochilik ko‘nikmalarini rivojlantirish – 1-kursga kelgan talabalarning ijro malakalari, mahoratlari, ijro holatlari turlicha bo‘lganligi sababli, ularni aniq ijro holati (postanovka)ni to‘g‘ri o‘zlashtirishiga e’tibor qaratish – bu talabaning kelajak yutug‘ini belgilaydi. Ustoz-o‘qituvchi talabaga dastlabki darsdan boshlab ikki yo‘nalishda, nota savodini takrorlash, yodga olish va og‘zaki uslub yo‘nalishida saboq berish, ijro imkoniyati darajalariga qarab, alohida reja-dasturlari tuzish maqsadga muvofiq. Bunday rejalar talabalarning har tomonlama nuqsonsiz o‘sishlariga imkoniyat yaratadi. Talabalarning berilgan vazifalarni bajarish darajasi, o‘zlashtirishlariga qarab asta-sekin murakkab o‘lchovlardan tuzilgan mashqlar, etudlar, konsert – etudlar ijrosiga o‘tish, amaliy ijrodagi nuqsonlarni bartaraf etishga ahamiyat beriladi. Shu maqsadda talabalarga beriladigan vazifalar nimchorak, o‘n oltitalik, o‘ttiz ikkitalik notalar cho‘zimi va pauzalardan tarkib topgan bo‘lishi ularning nazariy va amaliy bilimini rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘zlashtirilgan ijrochilik ko‘nikmalarini mukammallashtirish va rivojlantirish, doyra ijrochilik imkoniyatlarini kengaytirish, ijrochilik uslublarini yanada kengroq o‘zlashtirish, mustaqil mashg‘ulot tayyorlash ko‘nikmalariga yo‘naltirish tavsiya qilinadi. Talabaning ijrochilik qobiliyatiga, ijro mikoniyatlariga mos ravishda har yarim yillikda ikkita etud, 3-4 ta turli xarakter uslubidagi asarlar ijro etilishini rejalashtirish tavsiya etiladi.

O‘zbek milliy musiqiy an’analari mazmunida shaxs kamolotini ta’minlashga xizmat qiluvchi ma’naviy-ahloqiy qarashlar mujassamlashganligi, tarbiyaviy ahamiyatga egaligini unutmaslik lozim.

3. Sahnaviy chiqish va konsert ijrochilik ko‘nikmalari alohida o‘ringa ega.

Mamlakatimizda musiqa san’ati rivoji uchun keng ko‘lamli tadbirlar amalga oshirilayotgan davrda har bir ijodkor xalqimizning zukko va talabchan, nozik did egasi ekanligini, tinglovchiga havola etiladigan har bir kuy-qo‘shiq yuksak darajada bo‘lishini doimo yodda tutish lozimligini e’tirof etish zarur. Shundagina san’atsevar xalqimizning talabi qondiriladi, yuksak badiiy saviyadagi qo‘shiq va kuylar kishilarni bunyodkorlik mehnati bilan yanada

kengroq mashg‘ul bo‘lishga chorlaydi. Bu borada Doyra cholg‘usi e’tiborli o‘ringa ega ekanligi barchamizga ayon. Shuning uchun har bir talabaning ijro dasturini yuqori darajada tayyorlash jarayonini yanada jadallashtirish, chuqurlashtirish, ijro dasturining badiiy jihatlarini yoritish, mohirona ijro etish darajasiga erishish, o‘quv jarayonida egallagan ijro imkoniyatlarini erkin namoyish eta olishlari uchun sahnaviy chiqishlar, maxsus konsertlar uyushtirish zarur tadbirlardan hisoblanadi. Shular orqali talabalar ijro mahoratlarini yuqori saviyada ko‘rsata oladigan holatga tayyorgarlik ko‘rish tavsiya etiladi. Chunki, cholg‘ularni chalish insonda qalb go‘zalligi, harakatlar muvofiqligi kabi xislatlarni tarbiyalaydi, insonni xush fazilatli, samimiy, ziyrak, yuksak axloq, madaniyat va ma’naviyat egasi qilib shakllantirishda keng imkoniyatlar yaratadi. Bundan tashqari musiqa talabalar ruhiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, ularning eshitish qobiliyati, xotirasi, tafakkuri, diqqatini rivojlantirishda muhim omil bo‘ladi. Shundan kelib chiqib, talabalarning musiqaga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, unga nisbatan intilishini shakllantirish, o‘zbek xalqining boy madaniy-tarixiy merosi, milliy musiqa madaniyatini ular ongiga singdirish, bugungi kunning dolzarb vazifasi sanalmish buyuk allomalarimiz, bastakorlar hayoti va ijodi bilan tanishtirishda ijodkorlik, izlanish, cholg‘u ijrochiligi malakalarini rivojlantirish, o‘z fikrini mustaqil bayon etish kabilar muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazmun, mohiyat anglangandan so‘ng ijro maqsadi, mahorat oshirish yo‘llari bajariladi. Bunda albatta taniqli san’atkorlar ijrosi, professional ansambllar ijodi bilan tanishish amalga oshiriladi. Talabalarning mustaqil ishlari nazoratdan o‘tkazilib, tegishli maslahatlar beriladi. Shuningdek talaba-yoshlar taniqli san’atkorlar, turli sozlarda ijro etib, san’atimiz fidoyilari faoliyatlarini o‘rganish, ular ishini davom ettirish, rivojlantirishga o‘z hissalarini qo‘shish asosiy burch hisoblanadi.

Nazorat savollari

1. O‘quv jarayonida pedagogik texnologiyalarning o‘rni qanday?
2. O‘qishga bo‘lgan yondashuvlar haqida fikringiz?
3. Kompyuter, audio-video vositalarining ahamiyatini qanday tushunasiz?
4. DTS talablari haqida nimalarni bilasiz?
5. Pedagogik repertuar sizningcha nima?
6. Repertuarning ahamiyati nimada?
7. Musiqaning hayotimizdagi o‘rnini qanday izohlaysiz?
8. Bastakor va kompozitorlardan kimlarni bilasiz?

Adabiyotlar:

1. Akbarov I. Musiqa lug‘ati. Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987.
2. Akbarov I. “Doyra zarblari”. T., 1952.
3. Karomatov F. “O‘zbek cholg‘u musiqasi”. T., 1972.
4. Odilov A. “O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi” T., 1995
5. Ikromov I. “Doyra darsligi”. T., 1997.
6. Saydahmedov “Yangi pedagogik texnologiyalar”. T., 2003.
7. Jabborov A.H. “O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari”. T., 2004.
8. Ta’limda yangi pedagogik texnologiyalar (Tuzuvchi K.Usmonov). T., 2008.
9. Nishonova N. “Shaxs madaniyatini shakllantirishning gumanitar texnologiyalari”. T., 2008.
10. Islomov D. “Doyra ijrochiligi” T., 2020.

3-mavzu: “Tovush hosil qilish va uning turlari. Ijro usullari”
(4 soat).
12–15-darslar
DOYRA NOTA TIZIMI

Xalq musiqa ijrochiligi san’atining ko‘pgina sozlari kabi doyra cholg‘uchiligida ham XIX asrning ikkinchi yarmigacha usullarni notalashtirish yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan edi. Qadimdan doyrachilarga usullarni ustoz-sozandalar tomonidan og‘zaki, ya’ni ustoz-shogird qabilida amaliy ko‘rsatish yo‘li bilan o‘rgatib kelingan. Zarb va niqralarni ilk bor qog‘ozga tushirish o‘tmishda yashab, ijod qilgan al-Farobiy (IX-X asr), Safiuddin al-Urmaviy (XII-XIII asr) kabi buyuk allomalarning musiqiy risolalarida bayon etilgan. XIX va XX asr boshlarida Komil Xorazmiy va mumtoz musiqa yo‘lidagi usullar majmualarini Fitrat domla o‘z asarlarida nota chizig‘isiz bayon etishgan. Doyra zarb va usullarini notalashtirish uslubining o‘ziga xos, mukammalroq yo‘lini XIX asrning 80-yillarida ma’lum darajada harbiy kapelmeyster A.Eyxgorn, XX asrning 20–30-yillarida esa taniqli rus musiqashunos etnograflari V.M.Belyayev, V.A.Uspenskiy, N.N.Mironovlar boshlab berganlar. Ular doyra cholg‘u usullarini, asosan urma cholg‘ular uchun amaliyotda qabul qilingan bir chiziqli nota yozuvi uslubida ko‘rsatib berganlar.

Doyra ijrochiligida uch ijro vositasi mavjud: rang-barang tembrlar, usul va xilma-xil dinamik shakllar. Bularning barchasi doyra ijrochilik san’atida


o‘zaro chambarchas bog‘langan. Doyra zarb va usullari sozandaning ikkala qo‘l barmoqlarining bir xil harakatlari ta’sirida hosil bo‘ladigan kuchli va kuchsiz zarb sadolari tufayli vujudga keladi. Shuning uchun ham, doyra ijrochilik san’atining boy va xilma-xil ijrochilik imkoniyatlarini bir chiziqli nota yozuvi uslubi to‘liq ifoda eta olmaydi. Chunki, bir chiziqli uslubda doyra zarblarining asosiy tovush manbayi (bak, bum) zarblarini ko‘rsatish mumkin, xolos.

1952-yili A.I.Petrosyans qalamiga mansub «Doyra darsligi» chop etildi. Bu darslikda muallif doyra nota yozuvi uslubini yanada kengaytirdi. Bu nota yozuv uslubi zamonaviy doyra chalish yo‘llarining barcha imkoniyatlarini qamrab oldi. Ushbu yozuv tizimi doyra ijrochilik amaliyotida har tomonlama qulayliklar yaratdi va bu uslub o‘z mukammalligi bilan hozirgi kunda doyra uchun asosiy nota yozuvi vazifasini bajarmoqda. So‘nggi yillarda Y.Haqqulovning doyra chalishni o‘rganish uchun chop etilgan «Doyra uchun pyesalar», O.Kamolxo‘jayev, A.Liviyevning «Doyra darsligi», T.Ashrafxo‘jayev, A.Ismatullayevning «Doyra sinfi bo‘yicha xrestomatiya» kabi darsliklari ana shu nota yozuviga asoslangan bo‘lib, ijrochilikda keng qo‘llanilmoqda.

A.I.Petrosyans qo‘llagan doyra uchun nota yozuvi tarkibida har xil zarblar asosida shakllangan doyra usullarini notalashtirishda o‘ng qo‘l va chap qo‘l uchun maxsus bir juft ikki yo‘lli nota chizig‘idan foydalanadi.

Nota belgilarining cho‘zimiga rioya qilgan holda, xilma-xil zarb tovushlari o‘ng qo‘l va chap qo‘l uchun ham bu chiziqlarda bir xil belgilar bilan ko‘rsatiladi.

Har xil usullarni yozishda besh chiziqli nota yo‘lidan foydalanish ham mumkin, bunda o‘rtadagi uchinchi chiziq ishlatilmaydi. Bunday hollarda o‘ng qo‘l uchun pastki 1- va 2- chiziqlar, chap qo‘l uchun yuqori 4- va 5- chiziqlar ishlatiladi. Ammo Sharq xalqlarining kuy va qo‘shiqlariga jo‘rnavoz bo‘lish jarayonida chap qo‘l uchun mo‘ljallangan katta va kichik bumlardan o‘rinli foydalanish cholg‘uchining mahoratiga bog‘liqdir.




chap qo‘l

o‘ng qo‘l


Pastki ikki chiziqqa o‘ng qo‘l, yuqoridagi ikki chiziqqa chap qo‘l zarblari tushuriladi.

O‘ng qo‘l



Katta bum Kichik bum Katta bak Kichik bak Chertib chalish (noxun)

Chap qo‘l




Katta bum Kichik bum Katta bak Kichik bak Chertib chalish (noxun)

BEZAK TURLARI

«Shing‘iroq». Doyra zarblari ostida halqachalarning bir-biriga urilishi natijasida hosil bo‘ladigan tovush **«shing‘iroq»** deb ataladi va amaliyotda (**x**) belgisi bilan ifodalanadi. **«Shing‘iroq»** tajribada, asosan, ikki ko‘rinishda uchraydi: mustaqil va jo‘rlikda. Ikkinchi ko‘rinishda bu uslub har xil usullar bilan birgalikda qo‘llanilib, har bir urilgan nuqralarga bezak beradi. Misol:

«Shing‘iroq» ning mustaqil qo‘llanishi:



«Shing‘iroq»ning har xil usullar bilan birgalikda qo‘llanilishi:



«Shing‘iroq» ijro uslubidan mohirona foydalanish doyrachining zehni va mahoratiga bog‘liq.

NUQTA (.)

«Nuqta» belgisi doyra terisining o‘rtasiga yoki chetiga tirnoq bilan chertib chalishni bildiradi.

PONA (.)

«Pona» belgisi doyra gardishining eng chekkasiga jimjiloqni to‘rtinchi barmoq ustidan sirg‘antirib chalishni bildiradi.

«Ilon izi» – boshmaldoq uchi bilan doyra gardishining terisiga tutashgan chetidan o‘ziga tomon sirg‘antirib, dirillatib ijro etishni bildiradi.

ILON IZI

(〰〰〰〰〰〰〰〰)

«Ilon izi» – boshmaldoq uchi bilan gardishining terisiga tutashgan chetidan o‘ziga tomon sirg‘antirib, dirillatib ijro etishni bildiradi. Bunday ijro etish uslubidan doyrachi yakkanavozlikda, ikki-uch doyra jo‘rnavozligida foydalanadi. Lekin bu ijro jarayonida boshmaldoq tirnoqlariga ehtiyot bo‘lish talab etiladi.

YULDUZCHA

(*)

«Yulduzcha» belgisi o‘ng qo‘lning «kichik bumi» va «kichik baki» ustiga qo‘yiladi. Bu vaqtda cholg‘uchi qo‘lini teridan uzmaydi va tovush darrov so‘nadi.

NOXUN

Qadimdan keksa avlod doyrachilari ommaviy katta sayllarda, har xil bayram tantanalarida, anjumanlarda karnay, surnay, nog‘ora cholg‘ulari bilan birgalikda kuylar ijro etish jarayonida doyra zarb usullarining kuchli taralishi uchun ikkala qo‘lning to‘rtinchi barmog‘iga **noxun** temirchalarini kiygizishib ijro etishgan. So‘nggi yillarda doyra cholg‘uchilik amaliyotida noxun temirchalarni kiyib chalish yosh sozandalarning doyra ijro sirlarini mukammal o‘zlashtirishiga imkon bermaganligini ko‘rsatdi, chunki noxun kiyib chalishga o‘rgangan doyrachi noxunsiz chalish uslublarini yo‘qotadi. Noxun tovushni sun’iylashtirib, sof, tabiiy sado berishiga to‘sqinlik qiladi. Hozirda noxun kiyib doyra chalish hollari juda kam qo‘llanilmoqda.

Nazorat savollari

1. Doyra nota tizimi haqida nimalarni bilasiz?
2. Doyra ijrochiligi bo‘yicha birinchi nashr etilgan o‘quv adabiyoti?
3. Doyra ijrochiligi va ijro bezaklari turlari haqida nimalarni bilasiz?
4. Ijroda tovush kuchini ifodalovchi belgilarni ayting?
5. Ijro etish xarakterini bildiruvchi belgilar qanday?
6. Temp sur’atlarini bildiruvchi belgilar qaysilar?

Adabiyotlar:

1. Akbarov I. Musiqa lug‘ati. Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987.
2. Akbarov I. “Doyra zarblari”. T., 1952.
3. Karomatov F. “O‘zbek cholg‘u musiqasi”. T., 1972.
4. Odilov A. “O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi” T., 1995.
5. Ikromov I. “Doyra darsligi”. T., 1997.
6. Cholg‘u ijrochiligi: muammo va yechimlari, Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. T., 2017.
7. Islomov D. “Doyra ijrochiligi”. T., 2020.


4-mavzu: “Cholg‘u asarlari va ularni o‘zlashtirishga qo‘yiladigan nazariy talablar” (4 soat).


16–19-darslar


O‘qituvchi-ustoz tomonidan har bir talaba dasturiga kiritilgan vazifalar: mashq, etud, turli xarakterdagi asarlar ustida ishlash, yod olish, melizmlar, dinamika, ijodiy talqin masalalariga rioya etish ustida amaliy ishlar bajarilishi bilan bir qatorda, nazariy bilimlar takrorlanib, mustahkamlanib boriladi.


NAZARIY BO‘LIM


Notalarning bo‘linishi va sanalishi



Butun nota, 1 i, 2 i, 3 i, 4 i ga sanaladi


Yarim nota, 1 i, 2 i ga sanaladi


Chorak nota, 1 i ga sanaladi



Nimchorak (sakkiztalik) nota, 1 yoki i ga sanaladi


O‘n oltitalik nota, ikki nota 1 yoki i ga sanaladi



O‘ttiz ikkitalik nota, to‘rt nota 1 yoki i ga sanaladi

Notalarning hajm jihatidan joylanishi

Butun nota



Yarim nota



Chorak nota



Nimchorak nota



O‘n oltitalik nota



O‘ttiz ikkitalik nota




CHALISHDA ASOSIY TEXNIK MALAKA HOSIL QILISH UCHUN MASHQLAR

O‘ng va chap qo‘llar uchun choraktalik, nimchoraktalik notalar cho‘zimi ishtirokidagi mashqlar

Choraktalik, «Nimchoraktalik» (yoki sakkiztalik) notalar ishtirokida o‘ng va chap qo‘llar uchun mashqlar. Bu mashqlarni o‘rganish jarayonida o‘quvchilar ko‘proq e’tiborni o‘ng va chap qo‘l zarblariga qaratishlari kerak. Zarblar kuchli, tiniq, ravshan taralishi uchun qo‘l harakatlari bir tekisda bo‘lib, zarblar bir-biridan farq qilmasligi lozim.





Ijroda o‘ng va chap qo‘llar uchun nimchoraktalik, choraktalik va o‘n oltitalik notalar cho‘zimi ishtirokidagi mashqlar

Albatta, yuqorida ko‘rsatilgan vazifalarni puxta o‘zlashtirgandan so‘nggina, nimchoraktalik, choraktalik va «o‘n oltitalik» notalar ishtirokidagi usul va mashqlarga o‘tiladi.

Bu mashqlar o‘quvchilarning ijro chaqqonligi o‘sishiga yordam beradi. E’tiborni «choraktalik, nimchoraktalik, o‘n oltitalik» notalar cho‘zimida ishlatiladigan usullarning aniq eshitilishiga, qo‘llar va barmoqlarning bir xil harakatiga hamda dinamik ishoralariga qaratish kerak.



Ijroda o‘ng va chap qo‘llar uchun nimchoraktalik, choraktalik, o‘n oltitalik va o‘ttiz ikkitalik notalar cho‘zimi ishtirokidagi mashqlar

Choraktalik, nimchoraktalik, o‘n oltitalik va **«O‘ttiz ikkitalik»** notalar cho‘zimidagi mashqlar har bir ijrochidan texnik chaqqonlikni talab qiladi.

Bunga erishish jarayonida mashqlar sekin templik asarlardan boshlanib, bora-bora tezlashib va murakkablashib bormog‘i lozim. Bu tadbir ma’lum darajada cholg‘uchidan ozod va ravon harakatni talab qiladi. Shu bilan birga, ijrochi qo‘lining tirsak va bilak qismlari ham doimiy harakatda bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.




PAUZALAR

Ijro jarayonidagi vaqtincha to‘xtamlar «**pauzalar**», deb ataladi. Amaliyotda notalarning nomlari, cho‘zimlari qanday atalib, qanday o‘lchansa, pauzalar nomlari va cho‘zimi ham shunday atalib, shunday o‘lchanadi.

Har bir cholg‘u ijrochisi kabi doyra va urma cholg‘u ijrochilari ham pauzalarni to‘g‘ri va aniq sanash qobiliyatiga ega bo‘lmog‘i kerak. Ravon ijroni puxta egallash uchun o‘quvchilarga har bir dars mobaynida turli pauzalar uchraydigan mashqlar, etudlar berib, bu topshiriqlarni aniq o‘zlashtirayotganliklarini kuzatib bormoq lozimdir.


Boshlang‘ich darslarda pauza ishtirokidagi mashqlarni asta-sekin ovoz chiqarib, sanab o‘rganish, keyinchalik esa cholg‘uchi ijro davomida o‘ziga qulay sanash yo‘llarini o‘zlashtirib olmog‘i kerak. (Albatta, sanashni ichki his bilan o‘rganish tavsiya etiladi).



Agarda orkestr yoki ansambl ijrosidagi asarlarda pauzalar soni ko‘payib ketsa, u holda asarning yozma nusxasiga raqam quyiladi.



Doyra ijrochiligida «Butun» va «Yarimtalik» cho‘zimdagi pauzalar kam ishlatilganligi sababli, misolsiz, faqat pauza deb ko‘rsatish bilan cheklanamiz.



«**Choraktalik nota**» – cho‘zimiga teng keladigan pauzaning yozilishi va qo‘llanishiga doir o‘ng va chap qo‘llar uchun mashqlar:



Nimchoraktalik pauza

«Nimchoraktalik nota» cho‘zimiga teng keladigan **«pauza»** uchun mashqlar:



O‘n oltitalik pauza

«O‘n oltitalik nota» cho‘zimiga teng keladigan **pauza** uchun mashqlar:



ZARBLAR CHO‘ZIMINI UZAYTIRUVCHI BELGILAR (fermata, nuqta, liga)

Fermata

«Fermata» belgisi notalar va pauzalar usti yoki ostiga yoy shaklida, o‘rtasiga nuqta qo‘yilib yoziladi. Uning asosiy vazifasi tovush yoki pauzalar cho‘zimini ma’lum miqdorda uzaytirishdir. Bu cho‘zim ijro etilayotgan asarning mazmuni va xarakteriga, dirijor yoki cholg‘uchining ijro mahoratiga bog‘liq. «**Fermata**» doyra ijrochiligida, yakkanavozlikda, ayniqsa raqs o‘yinlarida ko‘proq ishlatiladi.




Nuqta


«Nuqta» notalar cho‘zimini uzaytiruvchi belgidir. Nota yoki pauzalarning yoniga qo‘yilgan «Nuqta» shu notaning yoki pauzaning cho‘zim miqdorini yarim barobar uzaytiradi.

«**Nuqta**» belgisi nota va pauzalarning o‘ng tomoniga qo‘yilib, doyra va urma cholg‘ularning barcha ijro jarayonida qo‘llaniladi.


Amaliyotda **ikki nuqtali** notalar ham uchraydi, bunday holda cho‘zim birinchi nuqtaning yarmiga teng miqdorda oshadi. **Ikki nuqtali** notalar, doyra va urma cholg‘u usullarida kamroq uchraydi, shuning uchun bu belgi ustida alohida to‘xtashni lozim topmadik.



= 4/4 + 2/4 = 6/4




= 2/4 + 1/4 = 3/4




= 1/4 + 1/8 = 3/8




= 1/8 + 1/16 = 3/16




= 4/4 + 2/4 + 1/4 = 7/4



= 2/4 + 1/4 + 1/8 = 7/8



= 1/4 + 1/8 + 1/16 = 7/16



= 1/8 + 1/16 + 1/32 = 7/32



Liga

«**Liga**» belgisi — nota yozuvida **ikki** nota belgisini o‘zaro bog‘lab, cho‘zimini orttiruvchi maxsus belgi bilan ifodalanadi. Liga doyra ijrochiligida kam qo‘llaniladi. Lekin bu belgidan foydalanib yozilgan asarlar o‘zgacha jozibaga egadir. Ijro paytida doyrachi uchun liga o‘ng qo‘lga mos kelgani qulay. Amaliyotda bunday hol chap qo‘lga ham to‘g‘ri kelishi mumkin.



ZARBLARNI AMALDA QO‘LLASH USLUBI
(aksent, sinkopa, triol, rez, forshlaglar)
Aksent (Urg‘u) >

Barcha usullar har xil – kuchli va kuchsiz zarblardan iboratdir. Ularning sof, aniq hamda serjilo ijrosiga erishish uchun musiqaning rang-barang boy imkoniyatlaridan foydalanish lozim. Jumladan: «**Aksent**» (urg‘u) barcha cholg‘ular kabi doyra usullarida ham ko‘proq qo‘llaniladi. Nota yozuvida

«**aksent**» belgisi nota belgisining osti yoki ustiga qo‘yiladi. «**Aksent**» qo‘yilgan nota zarbi boshqa notalarga qaraganda kuchliroq chalinadi. Ba’zi boshlovchi cholg‘uchilarning o‘ng qo‘liga nisbatan chap qo‘li kuchsizroq harakatda bo‘ladi, bu kamchilik cholg‘uchi shakllangan sari ko‘proq sezila boshlaydi. Shuning uchun har bir murabbiy o‘quvchilarning bu kamchiliklarini bartaraf qilish uchun e’tiborni kuchsiz chalinadigan chap qo‘l zarblarini kuchli zarb, ya’ni «**aksent**» bilan ijro etishga qaratishi kerak.



Sinkopa

«**Sinkopa**» – kuchli hissadagi notaning navbatdagi kuchsiz hissadagi nota bilan o‘rin almashishi demakdir. (Ya’ni kuchli hissa bo‘sh ijrosiz qoladi va o‘ziga xos joziba hosil qiladi). Bu tadbir ravon usulda ma’lum keskinlik uyg‘otadi. Doyra ijrochiligida ham «**sinkopa**» bezak sifatida kuyga rang-baranglik, joziba va keskinlik kiritish uchun ishlatiladi.



Triol

«**Triol**» – uch tovushdan tuzilgan maxsus ritmik shakl. Triolning cho‘zimi, odatda, shu turdagi ikki tovush cho‘zimiga teng. O‘qishga oson bo‘lishi uchun nota yozuvining ustki yoki ostki qismiga 3 raqami qo‘yiladi.

Doyra ijrochiligida **triol** – uch zarbning sadolanishi bo‘lib, cho‘zimi jihatidan bir-biriga teng bo‘lishi lozim. «**Triollar**» ko‘proq chorak, nimchorak va o‘n oltitalik notalar cho‘zimida uchraydi. «**Triol**» shaklidagi usullarning aniq va ravon ijrosiga erishish uchun birinchi zarbga nisbatan urg‘u berib chalish talab etiladi. Shogirdning qo‘l harakati murabbiy nazoratida bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Ijrochilarning mohirlik darajasiga erishishda ko‘p turdagi mashqlar qatorida **triol** uslubini qo‘llash ham muhimdir. Chunki **triol** uslubi cholg‘uchidan chaqqonlikni, zukkolikni, zarblarni aniq ifodalashni talab qiladi. Bunga erishgan har bir ijrochi zamonaviy murakkab asarlarni nuqsonsiz ijro etishga qodir bo‘ladi.

Shuningdek, triol ishtirokidagi zarblarni mohirona o‘rganish rez, zarb usullarini mohirona ijro etish imkoniyatlarini o‘zlashtirishga zamin yaratadi. Ushbu vazifani bajarishda 16 talik, 32 talik triol ishtirokidagi mashqlar muhim vazifani bajaradi.

Triollarning taqsimlanishi





Rez (dildir, titrama)

«**Rez**» doyra va boshqa barcha urma-zarbli cholg‘ularning eng rivojlangan murakkab ijro usulidir. **«Rez»** o‘ng va chap qo‘l zarblarining birin-ketin uzluksiz harakatidan hosil bo‘ladi.

«**Rez**» usulini puxta va mukammal o‘zlashtirmoq uchun urma cholg‘ularga xos vositalarni egallamoq zarur. Bu jarayon, ayniqsa, triol usuliga xos xilma-xil aksent (urg‘ular) dan tashkil topgan mashqlarga asoslansa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bu mashqlarni qanchalik yengil, chaqqonlik bilan ijro etishga erishilsa, rez usuli ham shunchalik yengil va to‘liq o‘z ifodasini topadi.



Forshlag

Doyra va barcha urma cholg‘u asboblar ijrochiligida bittalik, ikkitalik, uchtalik, to‘rttalik forshlaglar keng ishlatiladi. «**Forshlag**» – asosiy tovushga qo‘shimcha bezak sifatida qo‘llanilib, uning tovush uzunligi miqdori alohida takt o‘lchoviga kirmaydi. Asosiy zarblarga nisbatan kuchsizroq ijro etiladi.

Doyra ijrochiligida forshlaglar zarblar tarkibida qaysi qo‘lga to‘g‘ri kelishiga qaramay, qisqa, chiroyli va aniq eshitilmog‘i zarur. Ijroda forshlagni qo‘llash cholg‘uchidan katta mahorat va bilim talab qiladi.

Yakka forshlag



Qo‘sh forshlag



Uchtalik forshlag



To‘rttalik forshlag





O‘NG VA CHAP QO‘L IJRO MAHORATINI OSHIRISH UCHUN MASHQLAR




10
Ba X.K.
11
Ba X.K.
12
Ba X.K.
13
Ba X.K.
14
Ba X.K.
15
Ba X.K.
16
Ba X.K.
17
Ba X.K.
18
Ba X.K.
19
Ba X.K.
20
Ba X.K.


21
Ba X.K.
22
Ba X.K.
23
Ba X.K.
24
Ba X.K.
25
Ba X.K.
26
Ba X.K.
27
Ba X.K.
28
Ba X.K.
29
Ba X.K.
30
Ba X.K.
31
Ba X.K.


32
Ba X.K.
33
Ba X.K.
p
34
Ba X.K.
Ba X.K.
Ba X.K.
35
Ba X.K.
36
ff
Ba X.K.
37
Ba X.K.
38
Ba X.K.
39



Nazorat savollari

1. Notalar hajm jihatdan joylashiuvi va ijro malakalarini qanday tushunasiz?
2. Ijro mahoratini oshirishdagi nazariy va amaliy bilimlarning ahamiyati nimada?
3. Notadan qarab ijro (chitka s lista) o‘rni va ahamiyati qanday?
4. Ijro zarblarini nota yozuvida ifodalash malakalari nima uchun ahamiyatli?
5. Doyra zarblarini notaga olish va uni tekshirishda Sibelius dasturidan foydalanishning foydasi nimada?
6. Doyra ijrochiligida Metronomdan foydalanish nima uchun muhim?

Adabiyotlar:

1. Vaxromeyev V.A. “Musiqaning elementar nazariyasi”. T.1980
2. Sposobin I.V. “Elementarnaya teoriya muziki”. M. 1951.
3. D.Soipova Musiqa o‘qitish nazariyasi va metodikasi, O‘quv qo‘llanma. T., 2009.
4. Akbarov I. Musiqa lug‘ati. Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987.
5. Akbarov I. “Doyra zarblari”. T., 1952.
6. Odilov A. “O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi”. T., 1995.

5-Mavzu: “Cholg‘u ijrochiligining o‘ziga xosliklari”.
(4 soat).
20–23-darslar

Amaliy qism

DOYRA

Doyra cholg‘usi asosan tut, yong‘oq va o‘rik kabi mevali daraxtlardan yasaladi. Doyra gardishining diametri (aylanma hajmi) 37 sm dan 40 sm gacha, gardish eni esa 5-6 sm qalinligida bo‘ladi. Cholg‘uga qoplanadigan teri (membrana) esa, ot, buzoq kabi uy hayvonlari terisidan tayyorlanadi va gardishga maxsus yelimlar yordamida yopishtiriladi.

Doyraning barcha xususiyatlarini nazarda tutgan holda, uni uch guruhga bo‘lish mumkin:

· og‘ir gardishli;
· o‘rta gardishli;
· yengil gardishli.

Doyraga qoplanadigan terining barcha xususiyatlarini nazarda tutgan holda, uni ham uch guruhga bo‘lish mumkin:

· qalin terili;
· o‘rta terili;
· yupqa terili.

Doyra qoplash jarayonida og‘ir gardishga qalin teri, o‘rta gardishga o‘rta teri, yengil gardishga yupqa teri qoplash maqsadga muvofiqdir.

Doira cholg’usi asosan ustalar tomonidan ishlangan futlyar, shuningdek maqxsus giloflarda quruq bolgan issiq xonalarda saqlanadi. Chunki nam sharoitda bolgan xonalarda saqlangan doira cholg’isu, amaliyotda tovush ijro xolatini yoqotib, cholguchiga bir-muncha qiyinchililar tug’diradi. Amaliyotda doira ijrochilari doira cholg’isini qadimda issiq olovlarda, xozirgi davrda esa maxsus yasalgan isiiqlik beruvchi elektr moslamalar yordamida toblashadi. Talab darajasida, yaxshi toblangan dira cholg’usi, yoqimli,jarangdor tovushga ega bolib ijrochini xar tomonlama ijro maxoranitini shaklanishida amaliy yordam korsatadi. Talab darajasida toblangan doirani yaxshilab oz xolatiga keltirmasdan turib saqlash g’ilof (futlyar) ga joylab bolmaydi. Chunki yaxshi toblanib oz xolatiga qaytmagan doira cholg’usi qisqa vaqt ichida oz xolatini yoqotib, ijro talablariga javob bermaydi.Doira cholg’uchisining ijro xolatiga ustoz tomonidan xar tomonlama talab darajasida e’tibor berish hamda nazorat qilish, kelgusida yosh doira ijrochilarining xar tomonlama ijro maxoratini rivojlantirishda amaliy yordam muxitini shallantiradi.

Doyra cholg‘usining tashqi ko‘rinishi



1- rasm

Doyra cholg‘usining ichki ko‘rinishi

Doyra gardishi ichki tomoniga uning diametriga qarab, 70-80 ta va undan ortiq metall halqachalar o‘rnatiladi. 14-15 ga yaqin bittalik yoki uchtalik bezak baldoqlari mixlanadi. Gardishning teriga tutashgan ichki tomoni doyra zarblarini bo‘g‘masligi uchun bir oz yoysimon yo‘nilgan bo‘lishi lozim.(2-rasm)



2-rasm

Doyrachining turib ijro etish holati

Doyra ikki holatda chalinadi: o‘tirib va tik turgan holda. Albatta, bu ma’lum shart-sharoitlarga bog‘liqdir. Cholg‘uchi, asosan ijro jarayonida ko‘proq tik turgan holda, orkestr va ansambl tarkibida esa, ko‘proq o‘tirgan holda chaladi. Doyrani turib chalganda, oyoqlar oralig‘i yelka kengligida turishi maqsadga muvofiqdir. Ikkala qo‘l tirsaklari gavdaga tegib turmasligi lozim. Har doim ijro etish mobaynida qo‘llar qotib, toliqmasligi uchun doyrani yuqoriga ko‘tarish, quyiga tushirish qo‘l, bilak va tirsaklarining harakatlarini yengillashtiradi. (3-rasm)



3-rasm

Doyrachining o‘tirib ijro etish holati

Doyrada ijro etish sabog‘ini o‘rganuvchi har bir o‘quvchi, avvalo, ma’lum darajada ijrochilikning qonun-qoidalariga amal qilishi kerak. Bunda cholg‘uchi boshni to‘g‘ri, yelkalarni bo‘sh tutib, o‘tirg‘ichga suyanmasdan, o‘tirg‘ich chetiga yaqinroq o‘tirishi kerak. O‘ng oyoq chap oyoqqa nisbatan ma’lum darajada orqaroqqa joylashib, yerga tayangan holda turadi. Cholg‘uchi o‘z atrofidagi sozanda, raqqosa va ijrochilarni ko‘rib turishi uchun doyrani o‘zidan ozgina chaproqqa olib ushlashi lozim (4-rasm).



4-rasm

O‘ng va chap qo‘l bilan doyra gardishining ichki tomonidan ushlash holati



5-rasm

Doyra ushlash holatining ijroda ikkita asosiy tayanch nuqtasi bo‘ladi. Doyra gardishining chap qo‘l ko‘rsatkich va bosh barmoq o‘rtasiga qo‘yilishi hamda qolgan barmoqlarning chalishga tayyor turishi birinchi holatdir. O‘ng qo‘l – bosh barmoq va qo‘l kafti bilan gardishning en tomonining o‘rtasiga qo‘yib, chap qo‘lga posongi to‘g‘rilanishi ikkinchi tayanch nuqtadir.

Eslatma: doyrani erkin ushlab va qulay holatda ijro etish uchun amaliyotda doyrachilar maxsus tayyorlangan moslama – ip bog‘ichdan foydalanadilar. Ushbu bog‘ich gardishning ichki tomonidagi halqachalarning biriga mahkam bog‘lanib, o‘ng qo‘l bosh barmog‘iga kiydiriladi.

Mukammal ijro xolatini bajara olgan chog’icji ijro amaliyotida, o’z oldiga qoyilgan vazifalarni toliq bajarishga erishadi. Yuqorida aytib otilgan barcha xususiyatlar ijrochlik jarayonida uyg’un, keng xar tomonlama yorqin ifodalanadi. Yuqorida aytib otilgan barcha muxim xolatlarni uztoz-murabbiy muntazam ravishda kuzatib nazorat qilib borish lozim boladi.

Chap qo‘l bilan doyra gardishining ichki tomonidan ushlash holati



6-rasm

Doyra gardishini chap qo‘l ko‘rsatkich barmog‘ining asos bo‘g‘iniga qo‘yib, gardishning ichki tomonidan bosh barmoq bilan biroz egib, bo‘sh ushlanadi.

Chap qo‘l barmoqlarining holati



7-rasm

Ijrochilikda muntazam, ravon tovushlar baland-pastligini bir tekisda amalga oshirish uchun o‘ng qo‘l zarblari cholg‘uga qay darajali urilsa, chap qo‘l zarblari ham shunday darajada amalga oshirilishi kerak. Shundagina usullarning bir tekisdagi mukammal ravon ijrosiga erishish mumkin.

Tovush chiqarish uslublari
O‘ng qo‘ldagi katta bum



8-rasm



Katta bum

O‘ng qo‘lda «**katta bum**» tovushini ijro etish uchun qo‘l barmoqlarini juftlagan holda, cholg‘uga zarb uriladi.

O‘ng qo‘ldagi kichik bum



9-rasm




Kichik bum

O‘ng qo‘l uchun mo‘ljallangan **«kichik bum»** ijrosida o‘rta barmoqni sal bukkan holda zarb uriladi. Kichik bum ham katta bum urilgan joyga uriladi.

O‘ng qo‘ldagi katta bak



10-rasm




Katta bak

«Katta bak» doyraning chekkasiga kaft bilan hamda barmoqlarni kergan holda membrana o‘rtasiga urib, ijro etiladi. Bu bilan kuchli, jarangdor tovushga erishiladi.

O‘ng qo‘ldagi kichik bak



11-rasm




Kichik bak

«Kichik bak» ni chalish uchun doyra terisining cheti – gardishga yaqin yeriga, to‘rtinchi barmoq keskin urilib, ijro etiladi. Boshqa barmoqlar kerilgan holda bo‘lib, teriga tegmaydi. Bunda jarangdor, yangroq tovush chiqadi.

Chap qo‘ldagi katta bak



12-rasm




Katta bak

Chap qo‘ldagi «**katta bak**» o‘ng qo‘ldagi katta bak singari doyra terisining cheti - gardishga yaqin yeriga barmoqlar bilan keskin urib, ijro etiladi. Bunda jarangdor yangroq tovush chiqadi.

Chap qo‘ldagi kichik bak



13-rasm




Kichik bak

Chap qo‘ldagi «**kichik bak**» o‘ng qo‘ldagi kichik bak singari doyra terisining cheti – gardishga yaqin yeriga to‘rtinchi barmoqni keskin urib, ijro etiladi. Boshqa barmoqlar kerilgan holda bo‘lib, teriga tegmaydi. Bunda jarangdor yangroq tovush chiqadi.

Chertib chalish (noxun)



14-rasm



Chap qo‘lda chertib chalish (Noxun)

Chertib chalish (noxun) jimjiloqni to‘rtinchi barmoq ustidan sirg‘antirilib, doyraning chekkasiga chertib, ijro etiladi. Tiniq, jarangdor tovushga erishiladi. Xuddi shu hol o‘ng qo‘l ijrosida ham takrorlanadi.

Chertib chalish uslubiga katta e’tibor berish kerak. Har darsda chap va o‘ng qo‘l barmoqlarida chertib chalish uchun alohida-alohida hamda birgalikda mashq, etudlar berib, barmoqlarning faoliyatini va rivojini bir xil o‘stirib bormoq lozim. Chiroyli va yoqimli chertib chalish o‘quvchilarning ansambl va orkestrda qo‘shiqlarga jo‘rnavoz bo‘lishlari uchun imkoniyatlar yaratadi.

Shing‘iroqni ikki tizza orasida qo‘lanilishi



15-rasm

Ikki tizza orasida
o‘ng va chap qo‘llarning ijro holati



16-rasm

Nazorat savollari

1. O‘zbek xalq cholg‘ulari bo‘limida doyra sinfi mutaxasisligi bo‘yicha bitirgan birinchi ustozlar kimlar bo‘lgan?
2. Doyra cholg‘usi uchun maxsus yozilgan asarlar, etudlar, konsert etudlari, bilan bir qatorda, kompozitorlar, ustozlar tomonidan moslashtirilgan asarlar, ularning mualliflari haqida ma’lumotlarni kimlar jamlagan?
3. Har bir talaba uchun alohida tuzilgan yakka ish rejalar mohiyati nimada?
4. Ustozning talabaga bo‘lgan birinchi talabi nimalardan iborat?
5. Talabalarning ijro holati, nazariy bilimlarini aniqlashda Ustoz vazifalari nimalardan iborat?
6. Doyra cholg‘usi “Raqs” san’ati usullarinin jamlashdagi vazifalar nimalardan iborat?
7. Doyra cholg‘usining yakkanavozlik, Sharq usullarini o‘zlaashtirishda video darslik va roliklar o‘rni qanday?
8. Sinov imtixonlarini topshirish uchun qoyiladigan talablarni qanday izoxlaysiz?
9. Birinchi doira darsligini muallifi kim va ushbu darslik nechanch yilda nashr qilingan?
10. Birinchi doira ijrochilik maktabini yaratgan ustoz xaqida qanday ma’lumotlarga egasiz?

11. Doira zarblarini, nota yozuvga olishda asosiy vazifalar nimalardan iborat?
12. Doira cholg'isini orkestr, ansaml tarkibidagi ornini qanday izoxlaysiz?

Adabiyotlar:

1. Akbarov I. Musiqa lug'ati. Toshkent, G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.
2. Akbarov I. "Doyra zarblari". T., 1952.
3. Petrosyans A.I. "Doyra". T., 1952.
4. Karomatov F. "O'zbek cholg'u musiqasi". T., 1972.
5. Odilov A. "O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik tarixi" T., 1995.
6. Ikromov I. "Doyra darsligi". T., 1997.
7. Islomov D. "Xalq cholg'ularini o'rganish" (Doyra usullari: doyra raqs uchun mo'ljallangan), 2019.
8. Islomov D. "Doyra san'ati darg'alari". T., 2019.
9. Islomov D. "Maxsus cholg'u" T., 2020
10. Yuldashev A. "Doira ijrochilik maktabi" T., 2015
11. Sattorom M. "Doira sexri" T., 2002
12. O.Komolxodjaev. A.Leviev "Doira darsligi" T., 2000

6- mavzu: "O'zbekiston kompozitorlarining xalq cholg'ulari uchun asarlar yaratish tendensiyalari" (4 soat).

24–27-darslar

O'qituvchi-muallimning shaxsiy ijtimoiy sifatlari zamon talabidan kelib chiqqan holda, pedagogga qo'yiladigan talablar borgan sayin takomillashib, murakkablashib boraveradi. Uzluksiz musiqiy ta'lim jarayonini amalga oshirishda ustozlarning ijtimoiy sifatlari qanday bo'lishi kerak, degan savolning qo'yilishi tabiiy albatta. Bunda biz, birinchi navbatda, ajdodlarimizning fikr-mulohazalarini hisobga olishimiz zarur. Ushbu vazifa barcha ustozlarga tegishli bo'lgani kabi bizning sinfimizga ham oiddir. Mutaxassislik o'qituvchisining kasbiy shakllanishi, birinchi navbatda, yuqorida keltirilgan xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirishdan boshlanadi. Ammo shuni alohida ta'kidlash joizki, musiqachilik kasbi alohida qobiliyat va iqtidor talab qiladi. U faqat o'qituvchi emas, balki u san'atkor hamdir. Bu ikki jabhani birlashtirish juda katta iqtidor va mehnat talab qiladi. Oliy o'quv yurti mutaxassislik o'qituvchilari talabalarga faqat o'z fanining asoslaridan bilim beribgina qolmay, ularni kelajakda egallaydigan kasbiga, ya'ni mutaxassislik o'qituvchisi, sozandalikka tayyorlab borishlari muhimdir. Musiqa san'ati tarixiga nazar tashlar ekanmiz, o'zbek xalq musiqasi namoyondalari faoliyati, ularning asarlaridagi janr xususiyatlari,

ijrochilik usullarini tahlil etib borish ahamiyatlidir. Masalan, doyra ijrochilik uslublarining xilma-xilligi turli viloyatlarda turlicha bo‘lib, ularning farqlari hozirgi kungacha saqlanib kelinmoqda. Ayniqsa, Xorazm doyrachilarining ijrochilik mahorati, jumladan, ohang, zarb jihatidan O‘zbekistonning boshqa viloyatlaridagi doyrachilardan farq qiladi. Shu bois, darslikka ilk marotaba Xorazm usullariga xos doyra va fortepiano uchun moslashtirilgan «Lazgi», «Galalaylum» asarlari va M.Ashrafiy, M.Leviyev, F.Nazarov, A.Liviyev, G.Mushel, F.Olimov kabi kompozitorlarning kuylari kiritildi. Bugungi kunda mustaqil O‘zbekistonning musiqa san’ati – bu ko‘p janrli, mazmun jihatdan boy, xususiyatiga ko‘ra, zamonaviy san’atdir, shu bilan birga, u o‘tmishning yuksak yutuqlariga mahkam suyanadi. Shuningdek, zamonaviy ijroda uchraydigan turli belgilar – tovush kuchini ifodalovchi, ijro xarakterini bildiruvchi, temp (sur’at) turlari kabilar ham o‘zlashtirilib borilishi maqsadga muvofiq. Quyida shularga e’tiboringizni qaratamiz:

Tovush kuchini ifodalovchi belgilar

pp pianissimo – juda kuchsiz
p piano – kuchsiz
mp messo piano – o‘rtacha kuchsiz
mf messoforte – o‘rtacha kuchli
f forte – kuchli
ff- fortissimo – juda kuchli
diminuendo – tovushni asta-sekin kuchsizlantirish
kreshchendo – asta-sekin kuchlantirish
s*f* sforsando – ayrim tovushlarni birdaniga kuchli ijro etish
Mogendo morendo – susaytirish
Salando kalando – tovush kuchini susaytirish va ayni vaqtda tempni og‘irlashtirish.

Ijro etish xarakterini bildiruvchi belgilar

Maestoso maestoso – tantanali
Espressivo ekspressivo – ta’sirli, ifodali
Santabile kantabile – musiqiy – musiqaviy, kuychan
Dolce dolche – nozik,
Grandioso grasiozo – latif
Animato – ilhom bilan, jonlanib, jonli
Non troppo non troppo – o‘rta-miyona
Allegro non tgorro allegro non tropo – o‘rtacha tezlikda
Molto molto – juda, nihoyatda
Lento molto lento molto – juda cho‘zib
Roso a roso poko a poko – oz-oz, sekin-asta

Roso a roso accelerando -poko a apoko achchalerando – oz-oz sekin-asta tezlata borish
Riu - pyu – birdaniga
Riu animato - pyu animato – birdaniga, jonliroq
Roso piu - poko pyu – sal, xiyol
Sempge - sempre – hamisha
Son moto - kon moto – jonliroq harakat bilan tezlashtirib
Leggiego - ledjiero – yengil
Lartamente - lyargamente – og‘ir
Meno - meno – bir oz og‘irroq
Meno mosso - meno mosso – sekinroq

Temp (sur’at) turlari

Biror bir musiqa asarini yoki uning qaysidir qismini ijro etish tezligi va xarakteri **temp (sur’at)** deb ataladi. Templarning nomi asarning boshiga, nota yo‘lining ustiga yoziladi.
Ko‘p qo‘llaniladigan asosiy templar quyidagilardan iborat:
Largo lyargo – juda cho‘zib chalinadi(eng og‘ir temp)
Lento lento – sekin-asta
Adajio adajio – og‘ir -vazmin
Andante andante – sekin-asta, shoshmasdan
Andantino andantino – andantedan tezroq
Moderato moderato – shoshilmay (o‘rta tezlikda, muloyim)
Allegretto allegretto – bir qadar tezroq, jonliroq
Allegro allegro – jadal
VIVO, vivace vivo, vivache – jadallik bilan
Rresto presto – tez
Prestissimo prestissimo – juda tez

Templarni sekinlashtirish va tezlashtirish belgilari

Accelerando achchelerando – tezlashtirib
Animando animando – jonlantirib
Rallentando rallentando – sekinlashtirib
Ritardando ritardando – og‘irlashtirib
Ritenuto ritenuto – sekin-asta to‘xtab
Ctrettoo - stretto – ixchamlatib (tezlatib)
A tempo: **tempo primo** a tempo, tempo primo – avvalgi tempga qaytish

Nazorat savollari

1. Doyra ijrochiligida uchraydigan belgilar haqida nimalar bilasiz?
2. Doyra ijrochiligida uchraydigan belgilar qaysi o‘quv adabiyotida berilgan?

3. Doyra ijrochiligi va ijro bezaklari turlarini bilasizmi?
4. Ijroda tovush kuchini ifodalovchi belgilar haqida so‘zlang?
5. Ijro etish xarakterini bildiruvchi belgilar qanday?
6. Temp sur’atlarini bildiruvchi belgilar qaysilar?
7. Doira zarblarida uch tovushlikni qanday tushunasiz ?
8. Doira zarblarini uzaytiruvchi belgilar xaqida nimalarni bilasiz ?
9. Yakkanavozlikda raqs usullari, mashq etyudlar, orasida ijro xolatlarini qanday izoxlaysiz ?
10. Doita usullarida Aksent (urg’u) zarblarini orni qanday ?

Adabiyotlar:

1. Akbarov I. Musiqa lug‘ati. Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987.
2. Akbarov I. “Doyra zarblari”. T., 1952.
3. Karamatov F. “O‘zbek cholg‘u musiqasi”. T., 1972.
4. Odilov A. “O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi” T., 1995.
5. Ikromov I. “Doyra darsligi”. T., 1997.
6. Islomov D. “Xalq cholg‘ularini o‘rganish” (Doyra usullari: doyra raqs uchun mo‘ljallangan), 2019.
7. Islomov D. “Doyra san’ati darg‘alari”. T., 2019.
8. Islomov D. “Maxsus cholg’u” T., 2020
9. Yuldashev A. “Doira ijrochilik maktabi” T., 2015
10. Sattorom M. “Doira sexri” T., 2002
11. O.Komolxodjaev. A.Leviev “Doira darsligi” T., 2000

7- mavzu: “Kompozitorlik ijodiyoti namunalari. Ijrochilik ko‘nikmalari”. (4 soat).

28–31-darslar

Har bir talaba dasturiga kiritilgan asarlar: mashq, etud, turli xarakterdagi asarlar ustida ishlash, yod olish, melizmlar, dinamika, ijodiy talqin masalalariga rioya etish ustida amaliy ishlar bajariladi. Nazariy bilimlar takrorlanib, mustahkamlanadi.

Nazorat savollari

1. Ijrochilik mahoratini oshirish omillari haqida nimalar bilasiz?
2. Ijrochilik maktabi yaratgan ustozlardan kimlarni bilasiz?
3. Taniqli ustozlarning maktablari xususida nimalar bilasiz, farqlari nimada?
4. Doyra ijrochiligiga bag‘ishlangan o‘quv adabiyotlarining qaysilari bilan tanishgansiz?
5. Doyra ijrochiligida uchraydigan usullar, zarblar, bezaklar haqida

nimalar bilasiz?

6. Musiqada uchraydigan pauzalar va turlari haqida bayon eting?
7. Ijroda mashq, etudlar ahamiyati qanday?
8. Ijro mahoratini oshirishdagi mustaqil ishlashdagi vazifalarni qanday tushunasiz?
9. O‘zbek kompizitorlari va bastakorlarining asarlarini doira va fortepiano uchun moslashtirish deganda nimalani tushunasiz ?
10. Usta Olim Komilov boshchilidagi qaysi San’atkorlar Angliyaning London shaxrida bolib o’tgan butun jaxon festivalida ishtitok etib, oltin medalga sazovor bo’lishgan ?

Adabiyotlar:

1. Akbarov I. Musiqa lug‘ati. Toshkent, G‘.G‘ulom nom. Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987.
2. Akbarov I. “Doyra zarblari”. T., 1952.
3. Karamatov F. “O‘zbek cholg‘u musiqasi”. T., 1972.
4. Odilov A. “O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi”. T., 1995
5. Ikromov I. “Doyra darsligi”. T., 1997.
7. Islomov D. “Xalq cholg‘ularini o‘rganish” (Doyra usullari: doyra raqs uchun mo‘ljallangan) 2019.
8. Islomov D. “Doyra san’ati darg‘alari”. T., 2019.
6. Islomov D. “Doyra ijrochiligi”. T., 2020.
7. Islomov D. “Maxsus cholg‘u”. T., 2020.
9. Yuldashev A. “Doira ijrochilik maktabi”. T., 2015
10. Sattorom M. “Doira sexri” T., 2002
11. O.Komolxodjaev. A.Leviev “Doira darsligi”. T., 2000.

8- mavzu: “Ijro ko‘nikmalari va asarlar tahlili”. (4 soat).
32–35-darslar

Har bir talaba dasturida rejalashtirilgan musiqali material, ya’ni turli xarakterdagi badiiy asarlar konsertmeyster bilan ijro qilinadi, ansambl, badiiy talqin ustida amallar bajariladi. Yarim yillik, birinchi semestr dasturini nazoratdan o‘tkazishga tayyorgarlik (nazariy va amaliy) ishlari bajariladi. O‘rganilgan bilimlarni, amaliy ko‘nikmalar orqali mustahkamlab borish, amaliy (yakka) mashg‘ulotlarda har bir mavzu, asar yuzasidan cholg‘uni chalib ko‘rish, kuylarning biror qismini notaga qarab ijro etib, tinglovchiga ta’sirchanligi xususiyatlarini takroriy tajribalar (repetitsiyalar), ijro talqinlari orqali sinab ko‘rish yaxshi natija beradi. Amaliy (yakka) mashg‘ulotlar ayrim asarlarning ijro talqinlari (musiqiy yozuvlari)ni tinglab ko‘rish, tajriba (repetitsiya)lar vositasida o‘z ijodiy (yoki ijro) yo‘nalishini aniqlash kabi zarur ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratiladi. Musiqiy ijro yozuvi namunalarini turli uslublarda

yozib olib saqlash, sadolanish variantlarini tahlil orqali o‘rganish vazifalari ham qo‘yiladi. Turli janrdagi asarlarga doirada jo‘r bo‘lish ham mashg‘ulotlarda amalga oshiriladi. Ular quyidagi uslublar orqali bajariladi:

1. Dastlab talabalar kuyni diqqat bilan tinglab, musiqiy asarni tahlil qiladilar.

2.Turli musiqiy – ritmik harakatlar yordamida kuyni ritmik his etadilar.

3. Talabalar cholg‘ularda jo‘r bo‘lish, notalarga qarab kuyni ijro etish ularning musiqiy ijodkorligini oshiradi.

Bunday mashg‘ulotlar talabalarda usul, tembr uquvini rivojlantiradi, xotira, nota savodi, ritm tuyg‘usini o‘stiradi, musiqaga qiziqish uyg‘otadi, natijada ularning musiqiy qobiliyatlari shakllanadi. Mutaxassislik sinfida olingan bir yillik o‘quv jarayonidagi bilimlar, ijrochilik ko‘nikmalari sinov-imtihonlari, akademik konsertlar, sinf konsertlari, kompozitorlar ijodiga bag‘ishlangan kechalar, bayram konsertlari hamda Respublika va Xalqaro tanlov-festivallarda qatnashishlari, talabalar ijrochilik mahoratlarini yanada oshirishda katta yordam beradi.

Kafedra tomonidan tasdiqlangan komissiya yoki bo‘lim oldida topshirish amalga oshirilib, baholanadi, keyingi vazifalar belgilanadi.

Nazorat savollari

1. Doyra cholg‘usining Orkestr partiturasidagi o‘rni qanday?
2. Doyra cholg‘usi O‘zbek kompozitorlari ijodida?
3. Doyra cholg‘usining O‘zbek ansambllarilagi o‘rni?

Adabiyotlar:

1. Odilov A. “O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi”. T., 1995.
2. Ikromov I. “Doyra darsligi”. T., 1997.
3. Islomov D. “Doyra ijrochiligi”. T., 2020.
4. Islomov D. “Maxsus cholg‘u”. T., 2020.

9- mavzu: “Ijro ko‘nikmalarini takomillashtirish, Etud, mashq va etud konsertlar ijrochiligi”. (4 soat).

36–39-darslar

Talabalar shaxsiy dasturlaridagi ijrochilik ko‘nikmalarini takomillashtirishga qaratilgan asarlar ijrosi bilan bir qatorda **Usta Olim Komilov** hayoti, ijodi, doyra ijrochiligidagi xizmatlari haqida mustaqil izlanish, o‘rganish, asarlarini o‘zlashtirishni ham olib borishga o‘rgatilib boriladi. Ushbu mustaqil ish 1-kurs talabalarini ijod bilan shug‘ullanish, o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha taniqli ijodkor-ustozlar faoliyati, asarlari, qoldirgan meroslari, ish uslublari bilan tanishish va kelgusida shu faoliyatni muntazam davom ettirishga zamin yaratadi.

Shuningdek, dasturda rejalashtirilgan asarlarni amaliy o‘zlashtirish, turli tadbirlarda qatnashish, ijro mahoratlarini namoyish etish kabilar davom ettiriladi.

Usta Olim Komilovning birinchi shogirdi **To‘ychi Inog‘omov** ijodi, doyra ijrochiligidagi xizmatlarini o‘rganish. Mashg‘ulotlar jarayonida mustaqil o‘zlashtirgan bilimlari bilan o‘rtoqlashish amalga oshiriladi. Ustoz ijro etgan asarlar, uslublari bilan tanishiladi hamda rejalashtirilgan dasturdagi asarlarni o‘zlashtirish, turli tadbirlarda qatnashish, ijro mahoratlarini namoyish etish kabilar davom ettiriladi.

1 kurs talabalarining ijro mahorati va ko‘nikmalarini inobatga olib, ustoz-o‘qituvchi darslikda berilgan quyidagi asarlardan tanlab dasturga kiritishni tavsiya qilamiz. Bir nafar talaba uchun dasturga kiritilishi lozim bo‘lgan asarlardan namuna sifatida keltiramiz:

1. I.Ikromov. Etud № 1.
2. I.Ikromov. Etud № 2
3. I.Ikromov. Konsert etud № 2.
4. I.Ikromov. Konsert etud № 3
5. I.Ikromov. Duet № 1.
6. I.Ikromov. Duet № 2.
7. M.Ashrafiy. “So‘zsiz qo‘shiq”.
8. M.Leviyev. “Yoshlik syuitasi”.
9. F.Alimov. “Shodiyona”.
10. A.Liviyev. “Qo‘shiq va raqs”.
11. Usta Olim Komilov. “Qo‘sh qars, 1-2 qismlar”.
12. T.Inog’omov. “Shodlik”
13. T.Inog’omov. “Ovchi”
14. T.Inog’omov. “Gulsara”
15. U.O.Komilov. “PIlla”

Nazorat savollari

1. **Usta Olim Komilov** nechanchi yilda tavallud topgan?
2. Usta Olim Komilov doyra cholgusidan tashqari qaysi o‘zbek xalq cholgularida ijro etishni bilgan?
3. Usta Olim Komilovga qayerda va nechanchi yilda «Virtuoz doyrachi» nomi berilgan?
4. Usta Olim Komilov qaysi musiqali drama va operalardagi milliy raqslarni sahnalashtirgan?
5. Usta Olim Komilov nechta usullarni yodida saqlagan va qanchasi o‘zi tomonidan bastalangan?
6. **To‘ychi Inog‘omov** nechanchi yilda tavallud topgan?

7. **To‘ychi Inog‘omov** faoliyati, doyra ijrochiligi mahorati haqida nimalar bilasiz?

8. **To‘ychi Inog‘omov**ning to‘garak rahbarligidagi faoliyati qanday bo‘lgan?
9. Teatrdagi faoliyati xususida nimalar bilasiz?
10. Usta Olim Komilov va To‘ychi Inogomovlar merosini ommalashtirishda kimlarning xizmatlari bor?
11. Doira ijrochilari amaliyotida ijro xolatlarini (qol barmoqlarini) saqlash uchun nimalarga etibor berishlari lozim ?
12. Ustoz Tuychi Inog’omov ijod qilgan doira usullaridan amaliyotda qanday foydalanasiz ?
13. Doira usullarida qollaniladigan nuqtali zarblar xaqida nimalarni bilaszi ?

Adabiyotlar:

1. Akbarov I. Musiqa lug‘ati. Toshkent, G‘.G‘ulom nom. Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987.
2. Akbarov I. “Doyra zarblari”. T., 1952.
3. Karomatov F. “O‘zbek cholg‘u musiqasi”. T., 1972
4. Odilov A. “O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi” T., 1995.
5. Ikromov I. “Doyra darsligi”. T., 1997.
6. Islomov D. “Doyra san’ati darg‘alari”. T., 2019.
7. Islomov D. “Doyra ijrochiligi” T., 2020.
8. Islomov D. “Maxsus cholg‘u” T., 2020.
9. Tafakkur gulshani. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti Toshkent. 1989.
10. Yuldashev A. “Doira ijrochilik maktabi”. T., 2015
11. Sattorom M. “Doira sexri” T., 2002
12. O.Komolxodjaev. A.Leviev “Doira darsligi”. T., 2000.

10- mavzu: “Milliy musiqa namunalarini ijro etish uslublari”

(4 soat).

40–43-darslar

Milliy uslublarni ijro etishni o‘zlashtirishda san’at darg‘alari ijrolaridan namunalar o‘rganish, o‘zlashtirish amalga oshiriladi. Jumladan, el sevgan san’atkor **Qahramon Dadayev** hayoti, ijodi, doyra ijrochiligidagi xizmatlari haqida mustaqil izlanish, o‘rganish, gastrol safarlaridagi asarlar ijrosi, doyra ijrochiligi targ‘iboti haqida bilimga ega bo‘lish talab etiladi. Ijro uslublarini o‘zlashtirish, boshqa doyrachilar ijro uslublaridan farqlanuvchi qirralarini aniqlash kabilar ustida izlanish o‘qituvchi-ustoz ko‘magida amalga oshiriladi.

Rejalashtirilgan dasturdagi asarlarni o‘zlashtirish, turli tadbirlarda qatnashish, ijro mahoratlarini namoyish etish kabilar davom ettiriladi.

Nazorat savollari

1. Qahramon Dadayev hayoti va ijodi haqida nimalarni bilasiz?
2. Qahramon Dadayevning doyra ijrochiligi targ‘ibotchisi sifatidagi faoliyatini sharhlang?
3. Qahramon Dadayev va “Bahor ansambli” haqida nimalarni bilasiz?
4. Uning shogirdlari kimlar va ularning ustozlari haqidagi fikrlari?
5. Qahramon Dadayevning erishgan yutuqlari xususida so‘zlang?
6. Qaxrmon Dadaevning ustozlari xaqida nimalarni bilasiz ?
7. Ustoz Qaxramon Dadaev ijod qilgan raqs usullari xaqida qandau ma’lumotlarga egasiz ?
8. Ustoz Qaxramon Dadaev xaqida nashr qilingan ilmiy maqolalarni izoxlab bering ?

Adabiyotlar

1. Akbarov I. Musiqa lug‘ati. Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987.
2. Akbarov I. “Doyra zarblari”. T., 1952.
3. Karamatov F. “O‘zbek cholg‘u musiqasi”. T., 1972.
4. Odilov A. “O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi”. T., 1995.
5. Ikromov I. “Doyra darsligi”. T., 1997.
6. Sattorov M. “Doyra sehri”. T., 2002.
7. Islomov D. “Doyra san’ati darg‘alari”. T., 2019.
8. Islomov D. “Doyra ijrochiligi”. T., 2020.
9. Islomov D. “Maxsus cholg‘u”. T., 2020.
10. Tafakkur gulshani. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti Toshkent. 1989.

44–46-darslar

Odil Kamolxo‘jayev hayoti, ijodi, doyra ijrochiligidagi xizmatlari, pedagogik faoliyati, nashr etgan o‘quv adabiyotlari mazmuni haqida mustaqil izlanish, o‘rganish, gastrol safarlaridagi asarlar ijrosi, doyra ijrochiligi targ‘iboti haqida bilimga ega bo‘lish. Ijro uslublarini o‘zlashtirish, boshqa doyrachilar ijro uslublaridan farqlanuvchi qirralarini aniqlash amalga oshiriladi. Har bir talaba uchun rejalashtirilgan dasturdagi asarlarni o‘zlashtirish, turli tadbirlarda qatnashish, ijro mahoratlarini namoyish etish kabilar davom ettiriladi.

Nazorat savollari

1. Odil Kamolxo‘jayev hayoti, ijodi haqida nimalar bilasiz?
2. Odil Kamolxo‘jayev qayerlarda tahsil olgan?
3. Odil Kamolxo‘jayev mehnat faoliyatini qachon va qayerda boshlagan?
4. Odil Kamolxo‘jayevning shogirdlari haqida nimalar bilasiz?
5. Odil Kamolxo‘jayev nashr etgan o‘quv adabiyotlarini bilasizmi?
6. Odil Kamolxo‘jayev qatnashgan va sovrindor bolgan tanlovlar xaqida nimalarni bilasiz ?
7. Odil Kamolxo‘jayev qanday ilmiy unvonlarfa ega bo’lgan?
8. Odil Kamolxo‘jayev ijro uslublari xaqida qanday ma’lumotlarni bilasiz?
9. Odil Kamolxo‘jayev qaysi san’at oliygoxida yoshlarga saboq bergan?
10. Odil Kamolxo‘jayev doira cholgusi uchun ijos qilgan asarlari xaqida qanday ma’lumotlarga egasiz?

Adabiyotlar:

1. Akbarov I. Musiqa lug‘ati. Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987.
2. Akbarov I. “Doyra zarblari”. T., 1952 yil
3. Karomatov F. “O‘zbek cholg‘u musiqasi”. T., 1972.
4. Odilov A. “O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi”. T., 1995.
5. Ikromov I. “Doyra darsligi”. T., 1997.
6. Islomov D. “Doyra san’ati darg‘alari”. T., 2019.
7. Islomov D. “Doyra ijrochiligi”, T., 2020.
8. Islomov D. “Maxsus cholg‘u”. T., 2020.
9. Tafakkur gulshani. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti Toshkent. 1989.
10. Yuldashev A. “Doira ijrochilik maktabi”. T., 2015
11. Sattorom M. “Doira sexri” T., 2002
12. O.Komolxodjaev. A.Leviev “Doira darsligi”. T., 2000.

47–49-darslar

O‘zbekiston xalq artisti **Tal’at Sayfutdinov** hayoti, ijodi, doyra ijrochiligidagi xizmatlari haqida mustaqil izlanish, o‘rganish, gastrol safarlaridagi asarlar ijrosi, doyra ijrochiligi targ‘iboti haqida bilimga ega bo‘lish. “Bahor ansambli” faoliyatidagi xizmatlari, ijro uslublarini o‘zlashtirish, boshqa doyrachilar ijro uslublaridan farqlanuvchi qirralarini aniqlash kabilar ustida izlanish o‘qituvchi-ustoz ko‘magida amalga oshiriladi. Rejalashtirilgan dasturdagi asarlarni o‘zlashtirish, turli tadbirlarda qatnashish, ijro mahoratlarini namoyish etish kabilar davom ettiriladi.

Nazorat savollari

1. O‘zbekiston xalq artisti **Tal’at Sayfutdinov** hayoti va ijodi bilan tanishmisiz?
2. Tal’at Sayfutdinovning doyra ijrochiligiga qo‘shgan hissasi nimada?
3. Uning “Bahor ansambli” bilan bo‘lgan gastrol safarlari, turli mamdakatlardagi ijrosi haqida nimalar bilasiz?
4. Tal’at Sayfutdinov kimning shogirdi edi va qanday yutuqlarga erishdi?
5. Tal’at Sayfutdinov qaysi faoliyati uchun O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan va Xalq artisti unvoniga sazovor bo‘ldi?
6. Ustoz Tal’at Sayfutdinov qaysi musiqiy Oliygoxda taxsil olganlar ?
7. Ustoz Tal’at Sayfutdinov qanday unvonlarfa ega bo’lgan ?
8. Ustoz Tal’at Sayfutdinov ijodi xaqida bogishlangan video film nechanchi yil olingan ?
9. Tal’at Sayfutdinov ijro uslubidagi jurnavozlik mahoratlari xaqida qanday ma’lumotlarni bilasiz ?
10. Tal’at Sayfutdinov tomonidan nashr qilingan qollanmalar xaqida qanday ma’lumotga egasiz ?

Adabiyotlar:

1. Akbarov I. Musiqa lug‘ati. Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987.
2. Akbarov I. “Doyra zarblari”. T., 1952.
3. Karomatov F. “O‘zbek cholg‘u musiqasi”. T., 1972.
4. Odilov A. “O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi”. T., 1995.
5. Ikromov I. “Doyra darsligi”. T., 1997.
6. Sattorov M. “Doyra sehri”. T., 2002.
7. Islomov D. “Doyra san’ati darg‘alari”. T., 2019.
8. Islomov D. “Doyra ijrochiligi”. T., 2020.
9. Islomov D. “Maxsus cholg‘u”. T., 2020.

50–53-darslar

Aka-uka Dilmurod, Xolmurod, Elmurod Islomovlar ijodi, doyra ijrochiligidagi xizmatlari, yosh doyrachilar tayyorlashdagi pedagogik faoliyat mazmuni haqida mustaqil izlanish, o‘rganish, asarlar ijrosi, doyra ijrochiligi targ‘iboti haqida bilimga ega bo‘lish. Ijro uslublarini o‘zlashtirish, boshqa doyrachilar ijro uslublaridan farqlanuvchi qirralari haqida izlanish olib borish, targ‘ibot qilish. Talabalar uchun rejalashtirilgan dasturdagi asarlarni o‘zlashtirish, turli tadbirlarda qatnashish, ijro mahoratlarini namoyish etish kabilar davom ettiriladi.

Nazorat savollari

1. Aka-uka Dilmurod, Xolmurod, Elmurod Islomovlar hayoti, ijodi haqida nimalar bilasiz?
2. Doyra ijrochiligi va targ‘iboti borasidagi faoliyatlari haqida fikringiz?
3. Doyra ijrochiligini egallashdagi mashaqqatli jarayonlar xususida nimalar deya olasiz?
4. Doyra ijrochiligini egallashda muhim bo‘lgan qoidalar haqida so‘zlang.
5. Doyra ijrochiligini egallashda nazariy va amaliy bilimlar nima uchun zarur?
6. Islomov D. tomonidan yaratilgan o‘quv adabiyotlari bilan tanishmisiz?
7. Islomov D. Qachon professor unvoniga sazovor bo‘ldi?
8. Dilmurod, Xolmurod, Elmurod Islomovlarning ustozlarini xaqida qanday malumotga egasiz ?
9. Dilmurod, Xolmurod, Elmurod Islomovlar qaysi san’at oliygoxida taxsil olishgan ?
10. Dilmurod, Xolmurod, Elmurod Islomovlar qatnashgan tanlov-festivallar xaqida nimalarni bilasiz?

Adabiyotlar:

1. Akbarov I. Musiqa lug‘ati. Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987.
2. Akbarov I. “Doyra zarblari”. T., 1952.
3. Karamatov F. “O‘zbek cholg‘u musiqasi”. T., 1972.
4. Odilov A. “O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi”. T., 1995.
5. Ikromov I. “Doyra darsligi”. T., 1997.
6. Islomov D. “Doyra san’ati darg‘alari”. T., 2019.
7. Islomov D. “Doyra ijrochiligi”. T., 2020.
8. Islomov D. “Maxsus cholg‘u”. T., 2020.
9. Tafakkur gulshani. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti Toshkent. 1989.

54–56-darslar

Husan Nosirov – O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, mohir doyrachi, yoshlar orasida ijrochilik targ‘ibotchisi, to‘garak rahbari sifatida olib borgan rahbarlik faoliyati, o‘ziga xos ijrochilik uslublari, nashr ishlari, chet el safarlari haqida bilimga ega bo‘lish. Boshqa doyrachilar haqida ham ma’lumotlar to‘plash, targ‘ibot ishlari bilan shug‘ullanish, talabalar anjumanlarida ma’ruzalar, vaqtli matbuotda maqolalar bilan qatnashish faoliyatini amalga oshirish maqsadga muvofiq sanaladi. Talabalarning 1-kursdan boshlab ushbu ishlar bilan shug‘ullanishlari qo‘llab-quvvatlanadi, rag‘batlantiriladi. Faollar konsert ijrochiligiga jalb qilinadilar.

Nazorat savollari

1. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Husan Nosirov hayoti va ijodi bilan tanishmisiz?
2. Husan Nosirovning doyra ijrochiligiga qo‘shgan hissasi nimada?
3. Uning yoshlar orasidagi doyra ijrochiligi targ‘iboti haqida nimalarni bilasiz?
4. Husan Nosirov to‘garak rahbari sifatida qanday yutuqlarga erishdi?
5. Husan Nosirov qaysi faoliyati uchun O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist unvoniga sazovor bo‘ldi?

Adabiyotlar:

1. Akbarov I. Musiqa lug‘ati. Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987.
2. Akbarov I. “Doyra zarblari”. T., 1952.
3. Karomatov F. “O‘zbek cholg‘u musiqasi”. T., 1972.
4. Odilov A. “O‘zbek xalq cholg‘ularida ijrochilik tarixi”. T., 1995.
5. Ikromov I. “Doyra darsligi”. T., 1997.
6. Yo‘ldoshev A. “Doyra ijrochilik maktabi”. T., 2015.
7. Islomov D. “Doyra san’ati darg‘alari”. T., 2019.
8. Islomov D. “Doyra ijrochiligi”. T., 2020.
9. Islomov D. “Maxsus cholg‘u”. T., 2020.
10. Tafakkur gulshani. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, T., 1989.

57–60-darslar
Asarlar tahlili:

Ushbu darslikda ijro uchun keltirilgan asarlar 1-kurs talabalarining ijro mahoratlarini oshirish, ijro ko‘nikmalarini takomillashtirish, doyra ijrochilari bo‘lgan san’at darg‘alari ijodi, faoliyati, uslublari bilan tanishtirish, ibrat olishni maqsad qiladi. Birinchi navbatda mashq, etud, etud konsertlar, jo‘rnavozlikka o‘rgatuvchi fortepiano jo‘rligidagi asarlar, yakka ijro uchun turli xarakterdagi asarlardan namunalar, duet uchun asarlar namunalari ham berilgan.

Qo‘sh qars – ayrim ma’lumotlarga qaraganda, ushbu asar XX asrning 20-yillarida turkum ko‘rinishida vujudga kelgan bo‘lib, ikki (qo‘shaloq) zarb ma’nosini anglatadi. Doira cholg‘usida sozandaning ikkala qo‘li ishtirokida ijro etilishi bu nomga asos bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, doyradagi ikkita asosiy zarb – “bum” va “bak” usullarini ham bu nomlanishga asos qilib keltirish mumkin. Ustoz doyrachi sozandalar “Qo‘sh qars” ni doyra ijrochiligida barcha usullarining asosi, deb ta’riflaganlar. Taqdim etilgan ushbu asar Usta Olim Komilov ijodiga mansub bo‘lib, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist D.Islomov ijrosida yozib olingan varianti berildi.

AMALIY QISM.
Ijro uchun materiallar

Ushbu darslikda tavsiya etilayotgan mashqlar, etudlar, etud-konsert asosan o‘zbek, tojik doyra, nog‘ora va doyra raqs usullari, qochirimlari, shu bilan bir qatorda, dunyo urma zarbli cholg‘ulari ijro uslublariga xos bo‘lgan cholg‘uchi-sozandaning ijro mahoratini har tomonlama oshirishga, ularning nazariy va amaliy bilimlarini kengaytirishga qaratilgan. Asarlarda doyra zarblarini ijrochilikda qo‘llash uslublari:

“Zarblar cho‘zimini uzaytiruvchi belgilar” – “Fermato, pauza, nuqta hamda liga”;

“Zarblarni amalda qo‘llash uslublari” – “Aksent, sinkopa, triol, rez, forshlaglar, shu bilan bir qatorda, tovush kuchini ifodalovchi, tovush xarakterini bildiruvchi templar (sur’at) turlari va ularning uzilishlari templar tezligi, sekinlashturuvchi belgilardan keng foydalanilgan.

Darslikda berilgan vazifalarni boshlang‘ich bosqichda ustoz yordamida mukammal o‘zlashtirgan, topshiriqlarni o‘z vaqtida bajargan talabalar kelajakda qaysi yo‘nalishda bo‘lmasin (yakkanavozlik, raqs san’ati, maqom yo‘nalishidagi murakkab kuylarga jo‘r bo‘lish, ansambl, orkestr tarkibida), ijro zarblarining sof va texnik (mahorat) zaminidagi qiyinchiliklarni yengishga katta imkoniyatlar yaratadi.


Etud № 1

I.Ikromov




7
8
mf
9
10
mf
11
pp


12
pp
13
ff
14
15
pp
16
f


17
ff
18
Presto
19

Etyud №2

I.Ikromov





3
♩ = ♩.
f
f
3
4
f
f


5
p
6
Vivo
f
f


7
8
p


mf
poco a poco cresc.
f
ff
9
10


11
12
p


13
Con moto
ffp


14
15
p

16 Espressivo (ta'sirli)


pp

17 Rubato

f

f

18


19
20
Meno mosso
ff


Più mosso
21
22
p


23
mf
poco a cresc.
f
ff
f
f
24



25
ff


26
Presto
p
ff
ff

Konsert etyudi №1

Moderato ♩ = 80

I.Ikromov
















4
p
5
3
fp
pp
3
fp


pp
6
p
mf
p
f



poco a poco accelerando
7
a tempo
mp



ff
mp
ff
mp
ff
mp
ff
mp
8
ff
ff
9


10
p
f
pp
f
11
12


13
14
p


15
16
f
ff
17
fp


♩. = ♩
6/8
ff
18
Allegro
rit.
4/4
ff
19


20
fp
poco a poco dim.
Prestissimo
3
p





21

A tempo














22
Allegro a tempo
23
24


25
26
3
27


28
29
fp
fp
fp
fp
ff
ff
30 Allegro Vivace
fp
fp


Konsert etyudi №2

I.Ikromov





3
♩.=♩
p
ff
ff
4
♩=♩.


5
p
6
7
f
f
f


8
ff
pp
9
Tempo I
poco a poco
pp
f
10


11
♩=♩.
f
f
12



13
Moderato
p dolce
Tempo I
14
p
f


15
16
p


p
17
18


p
19
20
f
f
f
f


21
p
ff
p
ff
p
ff
22
Vivace
fff
23


24
25
26
Maestoso
ff

Duet haqida ma’lumot

Talabalar yakka ijro bilan bir qatorda birgalikda ijro va duet bo‘lib ijro malakalarini egallashlari ham zarur. Shu bois quyida duet ijrosi uchun asarlar taqdim etilmoqda.

Duet (nem. duett. lot. duo - ikki) 1. Ikki ijrochidan tuzilgan ansambl.

2. Ikki ijrochiga mo‘ljallab yaratilgan musiqa asari. Ijrochilarning har biri o‘ziga xos alohida partiyaga ega bo‘ladi.

Bunda har bir talaba bir-biridan qolishmaslik, o‘z mahoratini namoyish etish, matnda berilgan barcha ko‘rsatmalarga rioya etish malakalarini egallashni talab etadi.

